

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI**

Adabiyotshunoslik kafedrası
5220100-o‘zbek tili yo‘nalishi 09.447- guruh talabasi
Soliyeva Shahloning

“ OMON MUXTOR IJODIDA NAVOIY TIMSOLI”
mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY

ISHI

Bitiruv malakaviy ish rahbari:
Filologiya fanlari nomzodi,
dotsent M. Boborahimov

Farg‘ona 2013

Bitiruv malakaviy ish kafedraning 2013 yil ____ -tartib raqamli
yig'ilishida muhokama qilingan va himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri _____professor A.Sabirdinov.

Taqrizchilar:

S. Mirzayeva

MUNDARIJA:

KIRISH. MASALANING QO'YILISHI VA O'RGANILISHI.....	4
I BOB. O'ZBEK ADABIYOTIDA NAVOIY OBRAZINING YARATILISHI.....	12
1.1 NAVOIY OBRAZINI YARATISHDA ADIBLARNING O'ZIGA XOS USLUBI VA MAHORATI.....	12
1.2. "NAVOIY VA RASSOM ABULXAYR" ASARIDAGI NAVOIY OBRAZINING O'ZIGA XOSLIGI.....	19
II BOB. "NAVOIY VA RASSOM ABULXAYR" ASARINING STRUKTURAL TAHLILI.	34
2.1. ASARDA IZOH GAPLAR VA REMARKALARDAN FOYDALANISH MAHORATI.....	34
2.2. ASARDAGI NAVOIY SHAXSIGA OID MASALALARNING SHOIR G'AZALLARI YORDAMIDA YORITILISHI	42
2.3. NAVOIY OBRAZINING RASSOM ABULXAYR (OMON MUXTOR) TASAVVURIDAGI IFODASI.....	49
XULOSA.....	54
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	58

KIRISH

Bugun biz tarixiy bir davrda – xalqimiz o'z oldiga ezgu va ulug' maqsadlar qo'yib, tinch-osoyishta hayot kechirayotgan, avvalambor, o'z kuch va imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo'lida ulkan natijalarni qo'lga kiritayotgan bir zamonda yashamoqdamiz. Istiqlool sharofati bilan milliy va ma'naviy qadriyatlarimizga bo'lgan e'tibor har tomonlama kuchaydi. Xususan, mumtoz adabiy merosimizning har qanday mafkuraviy bo'g'ovlardan ozod holda, madaniy-ma'rifiy, axloqiy-tarbiyaviy qadriyatlarning tarkibiy qismi sifatida o'rganila boshlashi tarixiy yutug'imizdir. Ayniqsa, xalqimiz tarixida yorqin iz qoldirgan buyuk siymolar hayoti va ijodiy faoliyati, ular qoldirgan meros bo'yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar dolzarb va umumestetik ahamiyatga ega. Ulug' shoir va mutafakkir Alisher Navoiy nafaqat xalqimiz, balki jahon adabiy-madaniy tarixida munosib o'rin egallaganshunday siymolardan biridir. O'zbek xalqi ma'naviy dunyosining shakllanishiga g'oyat kuchli ta'sir ko'rsatgan ulug' zotlardan biri Alisher Navoiy bobomizdir. Biz uning mo'tabar nomi, ijodiy merosining boqiyliigi, badiiy dahosi zamon va makon chegaralarini bilmasligi haqida doimo faxrlanib so'z yuritamiz. Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyandasi, millatimizning g'ururi, sha'n-u sharafini dunyoga tarannum etgan o'lmas so'z san'atkoridir. Olamda turkiy va forsiy tilda so'zlovchi biron-bir inson yo'qki, u Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va e'tiqod bilan qaramasa.

Agar bu ulug' zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir.

Inson qalbining quvonch-u qayg'usini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek- teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan kam topiladi. Ona tiliga muhabbat, uning beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuyg'usi ham

bizning ong-u shuurimiz, yuragimizga avvalo Navoiy asarlari bilan kirib keladi. Biz bu bebaho merosdan xalqimizni, ayniqsa, yoshlarimizni qanchalik ko'p bahramand etsak, milliy ma'naviyatimizni yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol toptirishda shunchalik qudratli ma'rifiy qurolga ega bo'lamiz¹.

Shoir hayoti va ijodiyotiga qiziqish, mahorat sirlarini o'rganishga bo'lgan intilish u hayotligidanoq boshlangan edi. Zamondoshlarining xotirasida, tarixiy adabiy bitiklarda sharqning bu ulug' siymosi haqidagi qaydlar, mulohazalar, hikoya va munosabatlar muhrlangan. O'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab esa navoiyshunoslik maxsus fan sifatida shakllana boshladi. Shoir biografiyasiga oid ma'lumotlar salmog'i ortdi, asarlari ommaviy nashr etila boshlandi.

Alisher Navoiy ijodiy merosi bo'yicha tadqiqot ishlari keng ko'lam kasb eta boshladi. Uning g'oyaviy- falsafiy xususiyatlari, ijtimoiy- siyosiy qarashlari, badiiy mahorati, poetikasi singari masalalarni atroflicha o'rganish yo'lga qo'yildi. Ulug' mutafakkir va shoirning umumbashariy g'oyalarni tarannum etuvchi asarlari jahonning ko'plab tillariga o'girila boshlandi. Tabiiyki, bu ulkan so'z san'atkorining mahorati sirlarini, ta'sirchanlik va umrboqiylik omillarini yanada chuqurroq tadqiq etish kun tartibidagi dolzarb masalalardan biriga aylandi.

Navoiy siymosini yangicha usulda kashf etishga va Navoiy dahosini bizga yaqinlashtirishga erishgan adiblardan biri Omon Muxtoridir. Shoir, yozuvchi, dramaturg, Omon Muxtor ijodi o'zbek adabiyotining o'tgan asr ikkinchi yarmi va yangi asr boshlanishi davridagi taraqqiyoti tarixida alohida sahifani tashkil etadi. Adib to'g'risida oldinlar "u nasrda ham qalam tebratgan shoir" deyilgan bo'lsa, bora-bora "u she'r ham yozadigan nosir, asosan romannavis" deya boshlanganiga guvoh bo'lamiz. Aslida, bu ikki janrda (drama, tarjima, xotira, suhbat kabilar bobida ham) yo'sinda ijod qilib keladi. Bunga to'xtalganimizga sabab, adibning nazmini nasridan, nasriy asarlarini she'riyatdan ajratib o'rganib bo'lmaydi. Bular "biri-biriga tutashib ketgan", bir butunlikni tashkil etgan-yaxlit adabiy holatdir.

¹Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.T., 2008. –B. 47.

Omon Muxtor (Muxtorov Omon Sulaymonovich) 1941- yilning 16- iyulida Buxoroda tug'ilgan. Omon Muxtor o'rta maktabni bitirgach, Toshkent davlat dorilfununi (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti) jurnalistika bo'limiga o'qishga kirdi. Bu yerda o'qishni tamomlagach, respublika radiosida, "O'zbekfilm" kinostudiyasi va kino qo'mitasida, Adabiyot nashriyotida xizmat qildi. Omon Muxtor faoliyatining asosiy qismi "Sharq yulduzi" jurnali bilan bog'liq. U ko'p yillar ushbu mo'tabar jurnalning bo'lim mudiri, bosh muharrir o'rinbosari, bosh muharriri lavozimlarida ishladi.

Garchi she'r yozishni o'quvchilik yillaridayoq boshlagan bo'lsa-da, 1966- yilda uning "Chorlar quyoshli yo'llar" deb nomlangan ilk she'riy to'plami nashr etildi. Kitobxonlar tomonidan bu to'plam iliq kutib olindi. O'sha, o'tgan asr ellig'inch yillar oxiri, oltmishinchi yillar boshlanishida shaxsga sig'inish illati fosh qilinib, hayotda o'z davri sharoiti darajasida yangi bir "ko'tarilish epkini" sezilgan, adabiyotimizga gurillab yangi bir avlod—Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Husniddin Sharipov, Xayriddin Saloh, Yusuf Shamansur, Aziz Abdurazzoq, Sayyor, Jamol Kamol, Erkin Samandar, Ma'ruf Jalil, Rauf Parfi, Omon Matjon, CHO'lpon Ergash, Mashrab Boboyev va boshqa qator shoirlar—katta saf kirib kelgan edi. Bu safda o'shandayoq Omon Muxtorning ham o'ziga xos ovozi va so'zi bor edi. Ushbu adabiy avlod ijodiga xos bo'lgan—bevosita insonning murakkab olamiga murojaat qilib, ichki kechinmalarini turfa bo'yoqlarda ochishga intilish Omon Muxtor she'riyatiga ham xos. Shu bilan birga, abadiy mavzular—tabiat va muhabbatni yoritishga ko'proq va ayricha e'tibor, hayot hodisalari haqida teran-falsafiy fikr yuritishga moyillik uning she'riyatida yaqqol ko'zga tashlanadi. Bunga (osoyishta ko'ringan ruhiy holat talqiniga) qanchalik zid tuyulmasin, uning she'riyatida (aksar nasriy asarlarida ham) bosh belgi—harakatdir. Bu, endi uzoq yillar davomida yaratilgan ijod namunalari, adib qahramonlariga faol (harakatchan) namoyish berish barobarida, hayotda Omon Muxtorning o'zi ham avvaldan yonib yashashga, yonib ijod qilishga, maqsad manzili sari yonib shiddat-shijoat bilan olg'a intilishga da'vat etilganini ko'rsatadi. U ham, qahramonlari ham "bosgan har

qadami, o'ylagan o'yi, ko'rgan-kechirgani, kuylagan kuyi "harakatdan, "orom va sukutni bilmay" hayotda kurashib yashashdan iborat insondir.

Omon Muxtorning biz eslaganlardan tashqari, "Ohang" (1974 y.), "Yog'du" (1979 y.), "Marvarid" (1985 y.) singari she'riy kitoblari ham bor (uning she'riyati ushbu kitobda to'laroq holda o'quvchi e'tiboriga havola qilinayapti). U yozgan she'rlarda samimiyat va hayrat kuchli. Faollik-harakat (kuchli ehtiros) ularga hayotbaxsh ohang bag'ishlaydi.

"Shoirning nasri" degan gap ayrim kishilarda "jiddiy nasr emas" degandek taassurot uyg'otadi. Cho'lponning yoki Oybekning sara asarlari ham shoirning nasridir! Hamma gap, nazmni ham, nasrni ham yaxshi tushunib, she'riy ruhni nasriy asarga qanday ufurishda bo'lsa kerak. Shoir Omon Muxtor boshdan she'rda o'zi egallagan tajribani asta-sekin nasrda qo'llab bordi. Uning shoirligi faqat uslubda ko'rinmay, bora-bora she'riy obrazlar, ramzlar, hatto she'riy tafakkur adibning nasriy asarlariga ko'chgandek bo'ldi. Ilk she'rlar to'plamidan ikki yil keyin bosilgan dastlabki "Nigoh" kitobidan boshlab adibning "Qushlar va tushlar", "Shaharlik kelinchak", "Hayot darvozasi", "Buxorolik donishmand", "Bolalikka sayohat", "Vazifa", "O'lmagan jon", "Uchqur poezdlar", "Sherlok Xolms Buxoroda" kitoblaridan joy olgan hikoya va qissalarida bu "shoirona holat"ning takomillashib borishi jarayonini ko'rish mumkin. Aytish kerakki, shoirning yoshlik yillarida hali ko'zga tashlangan ma'lum kamchilik-nuqsonlarga va ularning bartaraf bo'lib borish jarayoniga ham uning o'sha paytdagi nasriy asarlari aniq ko'zgudir. Yozuvchi Omon Muxtor mustaqillik yillarida eng ko'p roman yozgan adib sifatida tanildi. Mustaqillik ijodkor imkoniyatlari doirasini kengaytirib yubordi. Bu haqda uning o'zi suhbatlaridan birida: "Mustaqillik menga qanot baxsh etdi. Ilgari bunday asarlarni yozish u yoqda tursin, o'ylash ham mumkin emasdi", degan edi ("Turkiston" gazetasi, 2008- yil 14- may). Chindan ham ilk romani "Yillar shamoli" (1976- y.) bilan 2010- yilda nashr qilingan "Xotin podshoh" romani oralig'idagi 34 yillik muddat ichida oldinroq yozilgan yana bir "Egilgan bosh" romanidan keyin, mustaqillik yillariga kelib adib o'ndan ortiq

roman yaratdi. "Ming bir qiyofa", "Ko'zgu oldidagi odam", "Tepalikdagi xaroba" ("To'rt tomon qibla" trilogiyasi), "Ffu", "Ayollar mamlakati va saltanati", "Aflotun", "Maydon", "Navoiy va rassom Abulxayr" (dilogiya), "Odamlar kulishlari kerak" romanlari bosilib chiqdi. Bularning har biri o'quvchilar va adabiy jamoatchilik tomonidan qizg'in kutib olindi. Jiddiy bahs-munozaralarga sabab bo'ldi.

Bunday qiziqish bejiz emas. Gap shundaki, bu romanlar eng avval, bir-biriga mutlaqo o'xshamaydi, har biri o'ziga xos. Ularning deyarli barchasi roman janrining an'anaviy qoliplariga sig'maydi, ular shaklan ham, mazmunan ham o'zgacha yaratilgan. Bu yangilik birinchi navbatda romanlarda shartlilik tamoyillarining ustuvorligida ko'rinadi. Adib ilgari surayotgan g'oyaviy niyatini shartli unsurlar, shartli voqealar, ramziy timsollar va manzaralar orqali ifodalashga e'tibor beradi. U o'zi tasvirlamoqchi bo'lgan mangu va doimiy mavzularni yangicha qiyofadagi qahramonlar galareyasi orqali ham kashf etishga erishadi. Romanlarda tarix bilan zamon har doim yonma-yon turadi, qahramonlar ham o'tmish va bugun orasida. Yaxshilik va yomonlik, muhabbat va nafrat, ojizlik va jasorat, loqaydlik va g'ayrat, bilim va jaholat, xiyonat va sadoqat rishtalarini ayni chog'da bu qahramonlar o'zida to'la mujassam etadilar. Omon Muxtor aytish mumkinki, polifonik romanlar ijodkori hamdir. Uning deyarli barcha romanlari syujet va kompozitsion qurilishi, voqelikni bayon etish usullari, umum tuzilishi va qahramonlarning o'ziga xos ekanligidan boshqa adabiyot namunalariga ham butkul o'xshamaydi. Muhimi, adib o'tgan asrning 90-yillarigacha o'zbek romanchiligida qaror topib kelgan monofonik (bir ovozli) bayonga asoslangan "tartib"ni buzib, polifonik (ko'p ovozli) romanlar yaratilishiga munosib hissa qo'shdi. Ammo bu polifonik romanlar o'z milliy ildizidan, ko'p yillik tarixga ega barhayot fazilatlardan uzilib qolgani yo'q. Aksincha, ular o'zigacha dunyoga kelgan Sharq an'anaviy romanchiligini yangicha bosqichga ko'tardi. Bu romanlar tarixiy-adabiy jihatdan ham, shakl-shamoyili bilan ham qadim xalq og'zaki ijodi va mumtoz adabiyotimizdagi mavjud usullarga yaqindir.

Mamlakatimiz mustaqilligining o'n sakkiz yilligi arafasida O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi yozuvchi Omon Muxtor "Navoiy va rassom Abulxayr" asari uchun O'zbekiston Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi. "Ishq ahli" va "Buyuk farrosh" deb nomlangan ikki qismli bu diologiya-roman ustoz Oybekdan keyin ulug' Alisher Navoiyning monumental qiyofasini yaratishga Omon Muxtorning intilishini katta jasorat deb baholash mumkin.

Omon Muxtor xoh nazm, xoh nasrda bo'lsin, asardan asarga mahorati o'sib, tafakkuri ulg'ayib, qalami charxlanib borayotgan iste'dodli adibdir. Uning she'riyatida nasriy tajribasining ta'siri va nasriy asarlarida she'riyatining aks-sadolarini, umuman adib ijodidagi barcha yangi, muhim jihatlarni o'rganish o'zbek adabiyotshunosligi oldiga jiddiy tadqiqot olib borish talabini qo'yadi. Bu balki, ertangi kunlar vazifasidir.

MAVZUNING DOLZARBLIGI: Shoir, yozuvchi, dramaturg, tarjimon Omon Muxtor ijodi o'zbek adabiyotining o'tgan asr ikkinchi yarmi va yangi asr boshlanish davridagi taraqqiyoti tarixida alohida sahifani tashkil etadi. Yozuvchi Omon Muxtor mustaqillik yillarida eng ko'p roman yozgan adib sifatida tanildi. Mustaqillik ijodkor imkoniyatlari doirasini kengaytirib yubordi. Omon Muxtor romanlari bir-biriga mutlaqo o'xshamaydi, har biri o'ziga xos. Adib ilgari surayotgan g'oyaviy niyatini shartli voqealar, ramziy timsollar va manzaralar orqali ifodalashga e'tibor beradi.

Ulug' mutafakkir Alisher Navoiy hayoti va ijodiga yangicha yondashib shaklan qisqa, mazmunan uzun bo'lgan "Navoiy va rassom Abulxayr" diologiyasini yaratdi. Romanda Navoiyning barhayot hayoti haqida mulohaza yuritiladi. Navoiyni anglash uchun manbaa vazifasini o'taydi. Demak, Omon Muxtor asarlarining ko'plab qirralari hali to'liq ochilgan emas. Adib asarlarining o'ziga xos tomonlarini ochib berish bugunning dolzarb masalasidir.

MAVZUNING O'RGANILISH DARAJASI: Omon Muxtor ijodi bo'yicha adabiyotimizning yorqin vakillaridan Q.Yo'ldashev, A.Rasulov,

N.Xudoyberganov, S.Sodiq hamda Y.Solijonovlar o'zlarining ilmiy izlanishlarini olib borganlar.

BITIRUV MALAKAVIY ISHINING MAQSAD VA VAZIFALARI: Bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi Omon Muxtor asarlarining badiiy xususiyatiga e'tibor qaratish, ijodkor asarlarining g'oyaviy xususiyatlarini tahlil qilish, Navoiyning ochilmagan qirralarini kashf etish orqali Navoiyni anglashga yordam beradi. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirdik:

- Omon Muxtor hayoti va ijodi bilan tanishish;
- Omon Muxtor asarlarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish;
- Omon Muxtor asarlarining boshqa asarlardan farqli jihatlarini aniqlash;
- Navoiyning hayot va ijod yo'lini chuqur tadqiq etib, uning siymosini insonlarga yaqinlashtirish;
- Navoiy siymosining yaxlitligi va takomiliga xizmat qiluvchi boshqa qahramonlar bilan ham tanishish;
- Navoiyni tushunishga xizmat qiluvchi jihatlarini anglab yetishdan iborat.

ISHNING ILMIY YANGILIGI: Bitiruv malakaviy ishining yangiligi shundan iboratki, mazkur ishda Omon Muxtor ijodi va faoliyati bilan bog'liq masalalarning o'rganilishi, asarlarining boshqa asarlardan farqi Navoiy haqida emas, Navoiyni anglash haqida ekanligi, asar struktural jihatdan tahlil qilinganligi, tahlil jarayonida adabiyotimizda hali to'liq tahlil qilinib ulgurmagan, juda ko'plab izoh talab etgan remarka va izoh gaplardan foydalanish mahorati , Navoiy shaxsiga oid masalalarni shoir g'azallari orqali ochib berilishi hamda rassom Abulxayr obrazi orqali yozuvchi Omon Muxtor tasavvuridagi Navoiy timsolining o'ziga xos ifodasini yaratishidan iborat.

BITIRUV MALAKAVIY ISHNING MANBALARI: Tadqiqot vazifalari va tahlil uslubi taqozosiga ko'ra ishda quyidagi asosiy manbalarga tayandik: ilmiy

adabiyotlar, darsliklar, qo'llanmalar, maqolalar hamda internet ma'lumotlaridan foydalandik. Shuningdek, quyidagi asarlar ham manba vazifasini o'tadi:

- 1.Omon Muxtor .Navoiy va rassom Abulxayr.T. : Sharq, 2006.
2. Solijonov Y. Nutq va uslub. T., Cho'lpon nomidagi nashriyot, 2002.
3. Solijonov Y. XX asrning 80-90-yillari o'zbek nasrida badiiy nutq poetikasi. Filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya avtoreferati. T., 2002.
- 4.Dialog va uning badiiyasardagi o'rni//o'zbek tili va adabiyoti.- 2002, 4-son.
- 5.Sultonov Izzat . Navoiyning qalb daftari. T. 1976.
- 6.Qo'shjonov M. Ilm va ijod olamida. T. 1980.
- 7.Mamajonov S. Ulkan olim va dramaturg // Saodat. 1980.
- 8.Navoiy zamondoshlari xotirasida.Toshkent, 1986.
- 9.Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. T. 1974.
- 10.Sanjar Sodiq. Ijodning o'ttiz lahzasi.T., 2005.

ISHNING METODOLOGIK ASOSI VA ILMIY METODI: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning milliy istiqlol mafkurasi, adabiy-madaniy meroslar va ularni tahlil qilish va o'rganishga oid asoslari tadqiqotning metodologik asosini tashkil etadi. Shuningdek, ishning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, hozirgi tilshunoslik va adabiyotshunoslik erishgan ilmiy-nazariy yutuqlar va yangicha qarashlarga tayandik. Tadqiqotlar jarayonida Y.Solijonov, O. Sharofiddinov, U. Normatov, N. Karimov, M. Qoshjonov, Omon Muxtor, S.Mamajonov, I.Sulton, S.Sodiq, A.Rasulov, Q.Yo'ldoshev, A.Rustamov, H.Jo'rayev singari yozuvchi va olimlarning ilmiy fikr hamda xulosalariga tayandik.

BITIRUV MALAKAVIY ISHNING TUZILISHI VA HAJMI: Bitiruv malakaviy ishimiz jami varaqdan iborat bo'lib. Kirish, II bob va xulosadan iborat.

I BOB. O'ZBEK ADABIYOTIDA NAVOIY OBRAZINING YARATILISHI.

1.1 Navoiy obrazini yaratishda adiblarning o'ziga xos uslubi va mahorati.

Buyuk olim va mutafakkir shoir Alisher Navoiyning tabarruk nomi, ulkan ko'lam bilan kishini hayratda qoldiradigan ilmiy- adabiy va ijtimoiy- siyosiy faoliyati, jahon xalqlari madaniyati xazinasidan munosib o'rin olgan ajoyib o'lmas asarlari ko'pchilikka ma'lum va mashhurdir.

Navoiy va uning asarlariga bo'lgan havas, o'qish va o'rganishga bo'lgan intilish uzoq tarixga ega. Bu tarix buyuk shoir va olimning hayotligidanoq boshlanadi va shu kunlargacha davom etib kelmoqda. Bu havas, qiziqish va intilish shu qadar ommaviy tus oldiki, Navoiy asarlarini o'rganishni osonlashtirish muammosi paydo bo'ldi.

Navoiy hayoti ilmiy- adabiy merosi, madaniy merosimizni o'rganish borasida ko'rsatayotgan otalarcha g'amxo'rlik tufayli keng va atroflicha o'rganiladi, o'rganilmoqda. Bunga M.Nikitskiy, B. Bartold, E.Bertels, A.Yu. Yakubovskiy, S. Ayniy, O.Sharafutdinov, V. Zohidov, M. Oybek, I. Sultonov, V. Abdullayev, G'. Karimov, H. Orasli, A. Mirzoyev, P. Shamsiyev, H. Sulaymon, A. Hayitmetov, A. Qayumov, N. Mallayev, A. Rustamov, E. Rustamov, B. Abdug'ofurov, S.N. Ivanov, S. G'aniyeva, S. Erkinov, B. Valixo'jayev, Yo. Is'hoqov, B. Hasanov, H. Jo'rayev singari yirik sharqshunos va adabiyotshunos olimlar salmoqli hissa qo'shdilar va qo'shmoqdalar.

Navoiyning hayot yo'lini yoritish masalasiga bag'ishlangan asarlar orasida I. Sultonovning "Navoiyning qalb daftari" nomli kitobi va A. Hayitmetov va M.Mirzaahmedovalarning bir qancha qo'lyozma manbalar: Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush- shuaro" , Mirxondning "Ravzat us -safo",

Xondamirning “Makorim ul- axloq”, Zayniddin Vosifiyning “Badoe ul- vaqoe”, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnnoma” hamda Navoiy asarlari asosida yozgan “Alisher Navoiyning hayot yo’li” nomli maqolasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Navoiyga bag’ishlangan kitoblar juda ko’p. Lekin Navoiyning hayot yo’lini tadqiq etish borasida sharqshunos va adabiyotshunos olimlarimizning katta ishlar olib borayotganliklarini e’tirof etish bilan birga, ulug’ olim va hassos shoirning ulkan hayot yo’li to’la aniqlandi va ilmiy tadqiq qilindi, deb bo’lmasa kerak. Navoiyning ilmiy biografiyasi haliyaratilganicha yo’q. Uning shaxsi, kulfatlar hamda tasadiflarga to’la turmushi va ilmiy-adabiy va ijtimoiy-siyosiy faoliyati bilan bog’liq bo’lgan masalalar orasida hali to’la yechilmagani, kam o’rganilganiva munozaralilari ham bor.

Navoiyning hayot yo’lini o’rganishda, uning shaxsi bilan bog’liq bo’lgan masalalarga to’g’ri yondashishda o’sha davrda yozib qoldirilgan tarixiy asarlar va ularning sahifalarida keltirilganhujjat va dalillarning ahamiyati benihoyat kattadir.²

Insoniyat tarixida shunday porloq siymolar borki, ular to’g’risida asar yozish huquqi har kimga ham nasib etavermaydi.

Navoiy bugun o’zbek xalqi uchun milliy iftixor manbaiga, adabiy, madaniy va ma’rifiy kamolot timsoliga aylangan, xalqimiz ulug’ bobokalonning bebaho merosiga oshno bo’lib, uning nomini sevib e’zozlar ekan, bunda Oybekning xizmatlari beqiyosdir.

Oybek o’zbek adabiyotida birinchilardan bo’lib Alisher Navoiyning tashqi ko’rinishi orqali uning psixologiyasi, xarakteri, ichki dunyosini ko’rsatishga erishdi.

„Navoiy” she’riyati va Navoiy obrazi, hamisha kuchli quyosh kabi, ko’nglimni tortar edi, - deb yozgan edi Oybek „Navoiy” romanini qanday yozdim?” degan maqolasida. Navoiy va u yashagan davr hayotini shu qadar mukammal o’rgangan

²Navoiy zamondoshlari xotirasida.Toshkent, 1986.

ulug` o`zbek shoiri va uning muhitini ravshan tasavvur etgan Oybekning romanda XV asrdagi Xuroson hayoti manzaralari va shu murakkab davrni oftob kabi yoritgan Navoiy obrazini yorqin, haqqoniy tasvirlay olishi aniq edi.

Navoiy, Oybek nazdida, asl pok, ulug` qalbli inson. XV asrdagi Xurosonnigina emas, balki butun o`zbek xalqi tarixini quyosh kabi yoritib turuvchi daho. U o`z zamon va zamondoshlaridan bir bir necha asrlarga ilg`orlab ketgan va ularni kelajak sari, adolatli, ma`rifatli, saodatli zamonlar sari yetaklagan siymo. Oybek roman yozilgan vaqtda Navoiyning bolalik va yigitlik fasliga nazar tashlashni o`ziga munosib ko`rmadi.

Ammo tarixiy davr nafasi ijtimoiy qiyofasi va ziddiyatlarini, xalqning urf – odatlari va xarakterini Navoiy obrazining inson, shoir, mutafakkir va davlat arbobi sifatidagi qirralarini to`g`ri yoritish uchun faqat tarixiy shaxslarnigina emas, balki to`qima qahramonlar obrazlarini ham asarga olib kiradi.

Oybek „Navoiy“da qahramonlar portreti tasvirga alohida e`tibor bergan. Asardagi o`ttiz yoshlar arafasidagi Navoiyning portreti: “Shoirning boshida uchli ko`k taqyaga silliq o`raglan ko`rkam salla. Egnida odami shohi to`n, ustida yalang qo`ng`ir movut chakmon... Qomati o`rtadan baland, ingichka , lekin pishiq, barmoqlari uzun va nafis, qora va qisqa soqolli, xushbichim miyiqdari tekis va silliq, yanoqlari chiqiqroq, kenggina yuzida diomiy tafakkurining asl ma`nosini qudrat va yengil, go`zallashtiruvchi bir xorg`inlik jilvalanadi. Qabariqroq qovoqlari ostidagi qiyg`och ko`zlarida go`yo tafakkur va xayol bilan birga qandaydir iroda kuchi ifodalanadi”³.

Adib bu portret tasvirida dastlab Navoiyning ustidagi libosiga, qaddi-qomatiga umumiy nazar tashlaydi, so`ng uning nigohi Navoiyning barmoqlari o`sha soqoli, miyiqdari va yanoqlari uzra siljib, yuziga va ko`zlariga kelib, uzoq to`xtaladi, nihoyat, shu yuz va ko`zlardagi ichki ma`noni yuzaga „tortib chiqaradi“. Mazkur portretning barcha tafsilotlari Navoiyning nozikta`b, nazokatli, xushbichim temuriylardan bo`lgani, shu qavmga mansub tafakkur va iroda kuchi unda ayniqsa

³Oybek. Navoiy. T.,

boʻrtirib koʻringanini ifodalashga qaratilgan. Navoiy yuzidagi „goʻzallashtiruvchi bir horgʻinlik” jilvalari esa, uning tun boʻyi ijod bilan mashgʻul boʻlganidan darak beradi. Yozuvchi Navoiy portretini shunday tasvirlaydiki, beixtiyor koʻz oʻngimizda baland boʻyli, istarasi issiq, irodali va qatʼiyatli shoir siymosi gavdalanadi. Oybek butun asar davomida Navoiyning ana shu portretga monand boʻlgan faoliyati va ruhiy olamining betinim harakatini tasvirlab beradi. Maʼlumki, temuriylar sulolasining tarix sahnasiga kelishi bilan turkiy xalqlar hayotida har tomonlama yuksalish davri boshlandi. Sharq uygʻonish davrining muhim tarkibiy qismi boʻlgan bu davr Alisher Navoiyning paydo boʻlishiga zamin hozirladi hamda uning zimmasiga oʻzbek adabiy tilini mustaqil yashash va rivojlanish pallasiga poydevor qoʻyish, oʻzbek mumtoz adabiyotini yangi kamolot bosqichiga olib chiqish vazifasini yukladi. Navoiy oʻz zimmasidagi ana shu ikki tarixiy vazifani oʻtash asnosida inqiroz sari ketayotgan temuriylar davlatini muayyan muddat bir butunlikda olib qolish va mamlakatni obod qilish ishiga oʻz ulishini qoʻshdi.

Oybek oʻz asarida Navoiy obraziga ana shu nuqtai nazardan yondashdi, uning faqat ulugʻ shoirgina emas, balki insonparvar va davlat arbobi sifatidagi xislatlarini ochishga ham eʼtiborini qaratdi. Oybek Navoiy tili bilan insonning barcha maxluqotlar toji ekanligini, agar davlat arboblari aql va adolat yuzasidan ish tutsalar, hatto hayotning zangini ham oltinga aylantirish mumkinligini aytadi. Ana shu tarzda u Navoiyning bizga, davrimizga yaqin boʻlgan, muammolarimizga javob bera oluvchi obrazini yarata boshlaydi.

Alisher Navoiy obrazini ochib berishga yordam beruvchi asarlardan yana biri Izzat Sulton qalamiga mansub “Navoiyning qalb daftari” asaridir.

Izzat Sultonning kitobi Alisher Navoiy haqida yozilgan asarlardan boshqacha talqinda yozilganligi bilan ajralib turadi. Asarda buyuk shoir, mutafakkir va davlat arbobi toʻgʻrisidagi barcha fikrlarni biz Alisher Navoiy tilidanhikoya qilingan voqealar orqali anglaymiz. Buning uchun bizdan unga faqat muxlisona bir xizmat darkor: ajoyib badiiy asarlarida, ilmiy tadqiqotlarida, xotiralarida va zamondoshlariga yozgan sanoqsiz xatlarida Navoiy oʻz davri, oʻz hayoti va

umuman inson haqida ko`pgina fikrlarini aytgan.

Buyuk shoir hayotining guvohlari, ya'ni zamondoshlari Abdurahmon Jomiy, Sulton Husayn Boyqaro, Mirxond, Xondamir, Zayniddin Vosifiy, Davlatshoh Samarqandiy, Zahriddin Muhammad Bobur va boshqalar yozib qoldirgan asarlarda ham ulug`siymoning ijodi, hayoti, so`zlari, kishilar bilan munosabati va muomalasi, xulqi va sajiyasi (tabiati) haqida aniq misollar qayd etilgan. Agar ana shu fikrlar va ma'lumotlar bir joyga jam etilib, Navoiyning uzoq hayot yo`li pog`analari bilan, bugun mumkin bo`lgani qadar bog`lab, bir ipga chizilsa, buyuk insonning o`zi haqida o`zi aytgan iqromnomasi va shohodatnomasidek bir asar maydonga keladi. „Yozuvchining tarjimai holi – dastavval uning asarlaridir” degan qadimiy haqiqatga amal qilib, Navoiyning adabiy merosida dastavval buyuk san'atkorning o`z ichki dunyosi aks etgani ko`zda tutilsa, uning asarlari orqali Navoiyning shaxs sifatida qiyofasini tayin etishga intilish bunday iqromnomani maydonga keltirishda katta yordam berishi mumkin. Faqat bu ishda me'yorni saqlash va haqiqatni yuzaki tushunishdan, ya'ni asarda uchragan har voqea va har g`oyani yozuvchining o`ziga nisbat beraverishdan saqlanish kerak. Bu kitob ana shu yo`sinda yaratilgan. Tabarruk qo`l bilan yozilgan u satrlarda va rostgo`y til bilan aytilgan u so`zlarda Navoiy o`z qalbini ochgan. Shuning uchun bu kitobni „Navoiyning qalb daftari” deb atashga jur'at etish uchun asos bordek tuyiladi bizga. Navoiydek buyuk shaxsning hali yetarli o`rganilmagan hayotini yoritishga kirishilganda juda katta ehtiyotkorlik talab etiladi. Har hodisaga Navoiyning o`z ko`zi bilan qarash va baho berish bu kitobda asosiy masala bo`lgani uchun shoirning hayotini davrlarga bo`lishda ham keng xalq ommasi orasida „Chor devon” nomi bilan shuhrat topgan asar, ya'ni „Xazoyin ul-maoniy” da Navoiyning o`zi tomonidan keltirilgan quydagi davrlashga asosan rioya qilinadi: yoshlik davri (yeti yoshdan yigirma yoshgacha), yigitlik davri (yigirma yoshdan o`ttiz besh yoshgacha), o`rta yosh davri (o`ttiz besh yoshdan qirq besh yoshgacha) va keksalik davri (qirq besh yoshdan umrining oxirigacha). Navoiy odamning umrinitabiatdagi bir yillik davrga va uning turli bosqichlarini shu yilning to`rt fasliga o`xshatadi.

Navoiy fikricha, bu bosqichlarning birinchisi- „umr fusulining navbahori“, ikkinchisi, „bu fusulning yozi“, yigitlik chashmasorining hayotbaxshlig`ining og`ozi (boshlashi)`, uchinchisi, „bu fusulning xazoni, tiriklik bargrezining (barg to`kilishining) nishoni“, to`rtinchi bosqich esa „bu fusulning qishi, kishining... zamon ahli bilan xayrbod qilishi“dir. Bu she`riy ta`rif, bir qaraganda, o`sha davrlashga shartlilik kirgazgandek bo`ladi, ammo adibning hayoti va ijodi bilan yaxshi tanishgandan keyin, bu davrlash chuqur hayotiy asosga va har „fasl“ o`ziga xos yorqin mazmunga egaligiga guvoh bo`lamiz.

Navoiy o`z umrining oxirida yozgan edi:

„Kichik erkonimdin bo`lib qoshima

Buyuk muddao soldingiz boshima“

Bu uzoq yo`lning boshidan xotira, ustodlar: Attor, Xisrav Dehlaviy, Nizomiylarga minnatdorona murojaat. Shu „buyuk mudao“-ulug` adabiyot yaratishni ro`yobga chiqarish uchun kichiklikdan bel bog`lab ishlagan Alisherning hayot yo`li juda murakkab:

„Gahe topdim falakdin notavonlig`,

Gahe ko`rdim zamondin komronlig`.

Base issiq – sovuq ko`rdim zamonda

Base achchiq – chuchuk totdim jahonda“⁴.

Izzat Sultonov uch yo`nalishda: zamonaviy adabiyot muammolari, mumtoz adabiyot tarixi hamda adabiyot nazariyasi masalalari xususida izlanishlar olib bordi. Uning faoliyatida Alisher Navoiy siymosi va ijodi alohida o`rin tutadi. Olimning bu yo`nalishdagi ilk maqolasi “Mir Alisher Navoiy” (1938) tezda adabiy jamoatchilik e`tiboriga tushdi. Shu yili “Rustaveli va Navoiy” maqolasi vujudga keldi. “Navoiy tadqiqotlari ” (1941) degan maqola yozdi. Deyarli o`ttiz yildan so`ng yaratilgan “Navoiyning qalb daftari” hamda undan avval yaratilgan “Alisher Navoiy” dramasi boshlang`ich nuqtalari ana shu izlanishlarda yotadi.

⁴Sultonov Izzat .Navoiyning qalb daftari. T. 1976.

Olimning navoiyshunoslikka qo'shgan muhim hissasi " "Me'zon ul- avzon " va uning tanqidiy teksti" nomli ishi bo'ldi. Shu mavzuda tadqiqotchi nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi (1949). Ko'p yillik ijodiy izlanishlar samarasi sifatida "Navoiyning qalb daftari" asari jahon navoiyshunosligiga qo'shgan katta hissasi bo'ldi. "Kitobni varaqlar ekansiz, deydi Matyoqub Qo'shjonov, - avvalo unda tadqiqot uslubi originalligi, faktlar ob'yektiv tahlil qilinishi, muallifning mantiqan fikrlarni dalillash mahoratini egallaganligi ko'zga tashlanib turadi. Bu jihatdan "Navoiyning qalb daftari" asari Izzat Sultonovning ulug' shoir haqida yaratgan boshqa ishlaridan ajralib turadi ⁵. "Navoiyning qalb daftari" asari mazmuni shakli janri jihatidan adabiyotshunosligimizda yangi hodisa. Zahmatkash olim ulug' shoirning barcha asarlari hamda Navoiy zamondoshlari – tarixchi, adabiyotchi olimlar asarlari asosida ulug' o'zbek shoirining tarjimai holini, ko'pgina asarlarining yozilish tarixini yaratdi⁶.

O'zbek adabiyotida Navoiyga bag'ishlab yozilgan juda ko'p asarlar mavjud. Ularning barchasida Navoiy va uning shaxsiga oid masalalar muallifining dunyoqarashi va saviyasiga ko'ra talqin qilingan.

⁵Qo'shjonov A. Ilm va ijod olamida. T. 1980. – B. 46.

⁶Mamajonov S. Ulkan olim va dramaturg // Saodat. 1980. №3. – B.10.

1.2. “Navoiy va rassom Abulxayr” asaridagi Navoiy obrazining oʻziga xosligi.

Alisher Navoiy siymosini har bir davr oʻziga xos talqin etganidek, har bir avlod ham oʻzicha kashf etadi. Zero, bu ulugʻ zotni bejiz cheksiz ummonga tenglamaydilar. Uning umr yoʻli ham sir-sinoatlarga boy, adabiy merosiga oid duru injularning esa chek-chegarasi yoʻq. Shoirning oʻzi lutf etganidek: „El netib topqay menikim, men oʻzimni topmasam”. Taniqli adib Omon Muxtorning „Navoiy va rassom Abulxayr” deb nomlangan roman-dilogiyasi shunday izlanishlarning yangicha adabiy mahsulidir. Dilogiya „Ishq ahli” va „Buyuk farrosh” deb atalgan ikki kitobdan tashkil topgan. Yozuvchi ushbu romanlarida Navoiy obrazini oʻziga xos ijod yoʻsinida talqin etishga uringan.

Maʼlumki, tarixiy – xronikal hamda hujjatli asosda Alisher Navoiy obrazini yaratishga urinishlar ilgari ham boʻlgan. Ular orasida ulugʻ shoir va mutafakkirning surati va siyrati haqida xalqimizga muayyan tasavvur bera olgan Oybek, Lidiya Bat, Mirkarim Osim singari ijodkorlarning tarixiy roman hamda qissalari adabiyotimiz tarixida sezilarli iz qoldirgan.

Yozuvchi Omon Muxtor romanlarining ulardan farqli jihatlarini nimada? Aslida u ham bizga tanish boʻlgan tarixiy hujjatlarga, shoir zamondoshlarining xotiralariga, ulugʻ soʻz sanʼatkorining adabiy merosiga tayangan holda qalam tebratadi. Biroq yozuvchi ularda bayon qilgan fakt va raqamlarni shunchaki sharhlash bilan cheklanmaydi. Ularga boshqacha nigoh bilan qaraydi. Shu maʼnoda bu fakt, eng avvalo, roman uchun tanlangan mavzu va obrazga munosabatda namoyon boʻladi. Nazarimizda, adib Omon Muxtor oʻz salaflaridan farqli, „Ishq ahli” va „Buyuk farrosh” romanlarini Navoiy haqida emas, shoir va mutafakkir Navoiyni anglash haqida yozgandek tuyiladi. Muallifning bu qutlugʻ niyatini hikoyachi rassom Abulxayrning: „Navoiy toʻgʻrisida yuzlab kitoblar yozilgan. Ammo koʻnglim

to'lmadi. Bularning aksarida u tirik odamdan ko'ra ko'proq devordagi suratga o'xshaydi'',⁷ degan so'zlaridan ham anglash mumkin.

Omon Muxtor ijodiy niyatini ro'yobga chiqarish uchun o'ziga xos yangicha bayon usuli va tasvir vositalarini kashf etadi. Bu birinchi galda hikoyachi-qahramon obrazini tanlashda ko'rinadi. Rassom Abulxayr muallif Omon Muxtorning ham, qahramon Alisher Navoiyning ham tengdoshi-60 yoshda. Bu "tengqurlik" Navoiy bilan muallif va hikoyachi-qahramonning bir-birini tushunish, ruhiy holatini his qilishga yordam beradi. Navoiyning ham shoir, ham mutaffakir faylasuf, ham tadbirkor va aqlli davlat arbobi, ham oshiq, ham inson sifatida anglash istagi roman dilogiyani mantiqiy jihatdan birlashtirib turadi.

Xuddi shu o'rinda Omon Muxtorning ijodiy tamoyili, g'oyaviy maqsadi, axloqiy-falsafiy niyati oydinlashadi. Adib an'anaga aylangan usulga ko'ra, o'quvchini Navoiy atalmish ulug'vor cho'qqi sari chorlamaydi, aksincha, bu muazzam siymoni bizga yaqinlashtirishga intiladi. Buning uchun yozuvchi, avvalo g'oyat sinalgan va qulay usullardan birini qo'llaydi. Xalq Navoiyni qanday tassavur qiladi, uning sirli tomonlari oddiy odamlar tomonidan qay yo'sinda talqin etilgan? Navoiyning haroratli ishqiy g'azallarining ilhomchisi kim bo'lgan? Xalqona talqinlarining naqadar hayotiy yoki haqiqatdan yiroqligini his qilmoq uchun Alisher bilan tenqur sifatida o'z hayotimizga nazar solishimiz, kechinma va tuyg'ularimizni chuqur tahlil etib ko'rishimiz kerek, demoqchi bo'ldi. Shu tariqa romanda hikoyachi-muallif-rassom Abulxayr va uning suyuklisi (keyinroq rafiqasi) Shahriyalar maydonga chiqadilar. Bu g'oyaviy niyatni o'quvchiga yetkazish uchun Omon Muxtor „Ishq ahli” romanida yangicha bayon usuliga murojaat qiladi. Roman „Orzu”, „Hayrat”, „Armon” deb nomlangan uch bo'lim va „Xotima” dan iborat. Bo'limlarga rassom Abulxayrning Navoiyni o'rganish, anglash jarayonida „betartib yozib borgan” 5 ta daftari kiritilgan. Rassom Abulxayr haqida dastlabki ma'lumotni biz Odil ismli yigitning sevgilisi Barnoga yozgan xatidan bilib olamiz. Romanda voqealar bayoniga u ham qo'shilib,

⁷ Muxtorov O. Navoiy va rassom Abulxayr. T., 2006. –B. 7.

aralashib turadi. To'g'risi, o'quvchi Abulxayr bilan Odil va Barno vositasida uchrashadi:

“Suyukli Barno!

Mendan rassom Abulxayr haqida bilganlarimni yozib yuborishimni so'ragan ekansiz.

Mening bilganim qisqacha bunday.

Abulhayr bir paytlar eski shahar ko'chalari, kungurali devorlar, halqali eshiklari chizib yurgan. O'shanda (yoshlik yillari) ba'zan tabiat manzaralariga ham murojaat qilgan. Keyinchalik insonga yuz Burgan. Har xil kishilar rasmini (portretini) ishlashga qiziqqan. Bular orasida bir necha o'z qiyofasi tasviri (avtoportret) ham uchraydi. Dunyoni, o'z ustidanmi kulib turgan tasvir unga ancha shuhrat keltirgan. Uzoq mamlakatlarda ko'rgazmalardan joy olgan.

Darvoqe, yana bir muhim gap.

U ko'p yillar Navoiy tasvirini yaratishni orzu qilgan. Shu jarayonda Navoiydan o'rganib kuzatganlari, o'ylarini turli daftarlarda betartib yozib boragan. Qo'lim ostida shu daftarlardan ikkitasi bor. Bularni ham sizga jo'natyapman. Yo'qotmang! Qaytib olishim shart!

Odil. ”⁸

„Buyuk farrosh” romanida esa yozuvchi bu vositachilardan voz kechadi. Endi hikoyachi-rassom Abulxayr o'quvchi bilan yuzma-yuz hamsuhbat bo'ladi. Bu usul Navoiyni kitobxonga yanada yaqinlashtiradi. Ulug' shoirning ishq-muhabbat haqidagi o'y-fikirlari, qarashlari Abulxayrning suyukli umr yo'ldoshi Shahriyaga bo'lgan muhabbatli munosabati bilan parallelravishda bayon qilina boshlaydi. Natijada kitobxon hikoyachi timsolida Navoiyni anglash har bir inson (shaxs)ning ma'naviy-axloqiy turmushiga ijobiy ta'sir etishini tushunib oladi. Zero, yozuvchi g'oyaviy-badiiy niyatining asosida ham ana shu istak yotganini sezish mumkin. Rassom Abulxayr Navoiyning tashqi qiyofasini mukammal tasvirlash

⁸Muxtor O. Ishq ahli. T. 2006. – B.6

uchun siyratiga xos chiziqlarni topa bilishi kerak. Bu esa bedor tunlar, behalovat o'ylar, tinimsiz izlanishlar demakdir. Buning uchun san'atkorga ilhom va ijodiy jur'at ham zarur. Ana shu ilhom va ijodiy turtkini Abulxayr suyukli hamdami Shahriyadan oldi. Shu ma'noda Shahriya romanda tasvirlangan Navoiy Gulisi singari hayoliy va maftunkor sanam ham emas. U rassom umr yo'ldoshi, real inson. Shuning uchun uning turtki, daldalari ham g'oyat hayotiy va tabiiy:

„- *Nima qilib o'tiribsiz?*

- *O'ylayapan.*

- *Siz biron narsa chizish o'rniga nuqul o'ylaydigan bo'lib qoldingiz!*'' (50-bet)

Romanning yana bir o'ziga xos xususiyati shundaki, Navoiyni anglash chuqurlashgani sari o'z qahramoni bilan hikoyachi-muallifning ruhiyati, ma'naviy olami birlashib yakranglik kasb eta boradi. Xatto yosh o'tgan sari yuzlanadigan xastaliklarni ham ikkalasi barobar boshdan kechiradi. „Favoid“ davri – elga naf tegishi lozim bo'lgan palla haqidagi muallif va qahramon munosabatlarida ham o'xshashlik, uyg'unlik kuchaya boradi. Avvalo, „ elni shod, mamlakatni obod “ ko'rish istagi, keyinroq olam va odam masalasidagi mushohadalar, ruhiy poklanishni ilohiy darajaga ko'tarish, abadiyat sirlarini kashf etishga intilish – bularning barchasi qahramon haqidagi tafsilotlar hamda muallifning ichki kechinmalari fonida badiiy ta'sirchanlik, falsafiy teranlik kasb eta boradi.

Adib tarixiy siymo – Navoiyni zo'rlab zamonaviylashtirmaydi, unga yo'q sifatlarini yopishtirmaydi. Bir so'z bilan aytganda, uni ideallashtirish fikridan hamisha yiroqda turadi. Chunki, muallifning o'zi qayd etganidek, „turli dolg'ali davrlarda bu ulug' zot nomi yerga ham urilgan, ko'kga ham ko'tarilgan. Bugun shoir va mutafakkirni qanday bo'lsa shundayligicha qabul qilishimiz, asarlarni kitob javonlari va toqchalardan qalbimiz hamda shuurimizga ko'chrish pallasi yetdi. Uning ojiz tomonlari ham biz uchun aziz – hamdard va hamfikirligimiz ortadi, ustun jihatlari ham qadrli-ibrat maktabi bo'lib xizmat qiladi“.

Romanlardagi boshqa qahramonlar ham Navoiy siymosining yaxlitligini va takomiliga xizmat qiladi va shoirni yanada chuqurroq anglashga yordam beradi. Xususan, Husayn Boyqaro obrazi o'zining hayotiy va haqqoniyligi bilan diqqatga sazovordir. Uning ulug' inson, qudratli shoh, xassos shoir, Navoiyning sirdosh do'sti ekanligi haqida ko'p gaprilgan. Ojiz va notavon jihatlari haqida ham yetarli tushunchaga egamiz. Ammo uning xarakteridagi eng muhim jihat „yarq“ etib ochilgan emas - u mustaqil fikrdan yiroq kishi. Yonida Navoiy tursa, u zukko shoir, adolatli hukumdor, mo'tabar siymo. Xadicha begimga suyansa, kaltabin ota, noshud va notavon er, xatto qotil kimsa. Majididdin, Nizomulmulk sihgari makkoralar davrasida esa qo'g'ichoq hukumdor. Shuning uchun ham, hikoyachi-muallifning quyidagi keskin xulosasini ma'qullamay iloj yo'q: „*Alisher - Husayin davrida yashagan shoir emas, Husayn – Alisher davrida yashagan shohdir!*“ (106-bet).

Xullas, „Navoiy va rassom Abulxayr“ roman-dilogiyasining fazilatlari to'g'risida yana ko'p gaprish mumkin. Avvalo, bu asar yaxlit olganda badiiy-ilmiy yo'nalishda yaratilgan ma'rifiy romandir. Undan talaba ham, adabiyot ilmi bilan shug'ullanuvchi mutaxassis ham, oddiy kitobxon ham naf olishi, Navoiyni tushunishi, ayni chog'da o'sha murakkab tarixiy jarayondagi siyosiy- ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy ziddiyatlarni chuqur anglab yetish tabiiydir⁹.

Hazrat Navoiyning hayoti va ijodiy yo'li to'g'risida o'ziga xos ma'lumotlar berish, asarlaridan tarjimai holiga oid fakt va detallarni izlab topish hamda ular ustida ham badiiy, ham ilmiy mulohaza yuritish romanning asosiy g'oyaviy-estetik mohiyatini tashkil etadi. Roman o'zining syujet va kompazitsion qurilishi, konflikti, qahramonlar xarakterining ishlanishi jihatidan adib qalamiga mansub boshqa asarlaridan jiddiy farq qiladi. Unda keskin to'qnashuvlar, Omon Muxtor ijodiy uslubiga xos burama va shartli epizodlar yoki syujet chiziqlari uchramaydi. Portret qariyb yo'q, dialogning odatdagi shakli berilmagan, personajlar nutqi

⁹Solijonov Y.Navoiyni anglash baxti. // Buxoro mavjlari. 2011. № 3. –B.23.

qo'llanilmaydi, u holda nega biz aynan shu romanni dialogining yangi namunasi sifatida tanlab oldik?¹⁰

Gap shundaki, uch bo'lim, 5 daftar hikoyasidan tashkil topgan mazkur roman hikoyachi Abulxayrning o'quvchi bilan suhbat asosiga qurilgan. Roman mohiyatini musavvir Abulxayrning Navoiy portretini chizish uchun tayorgarlik ko'rish jarayonida „Navoiydan kuzatganlari, o'ylarini turli daftarlarda betartib yozib borgan“ mulohazalari tashkil etadi. Lekin bayon betartib emas, unda ulug' Navoiyning 4-5 yasharligidan to vafotiga qadar bo'lgan hayotiy yo'li qalamga olingan. Bu o'ta ziddiyatli, notekis hayot yo'li daftarlarda ma'lum davrlarga bo'lingan. Shunga muvofiq ravishda romanni bir-biriga bog'langan 5 ta dialogdan tashkil topgan deyish mumkin. Bu dialoglardagi ishtirokchining biri va asosiy mussavir Abulxayrning o'zidir.

Abulxayrning kasbi san'atkor bo'lganligidan mutaxassisligi jihatidan ham, dunyoqarashi va yoshi bilan ham yozuvchi Omon Mux Morga tengdoshdir. Ko'p o'rinlarda o'quvchi Navoiy asarlarining tahlil qilinishida rassomdan ham ko'ra ko'proq shoir va yozuvchi Omon Mux torni tasavvur qilib turadi. O'zini Navoiy potretini chizishga ruhan tayorlayotgan musavvir Abulxayr suhbatdoshiga shunday deydi: „Navoiy to'g'risida yuzlab kitoblar yozilgan. Ammo ko'nglim to'lmaydi, bularning aksarida u tirik odamdan ko'ra ko'proq devordagi suratga o'xshaydi.“ Aslida esa „U - bir osmon. U - bir ummon. Qamrash qiyin!“ bo'lib, „Hali hech kim Bu Osmon qa'riga ko'tarilmagan!. Hali hech kim Bu Ummon tubini ko'rmagan!“ Hikoyachi suhbatdoshimiz shoir she'rlarini saralab, ularning ruhiga kirib, va hayoliy ma'no kirar ekan, o'z mulohazalarini shoshilmay, o'ylab, fikr tarozisida tortib, chuqur mulohaza yuritib, shoir g'azallarining ma'nosi va ohangdagi farqlarini aniqlaydi. Ayrim o'rinlarda xuddi ilmiy xodim singari miyasiga dam berganday, „xo'p“ deya bir lahza sukut saqlab oladi-da, fikrlashni davom ettiradi. Bu romanning dialog shaklida yaratilganligini yana bir bora

¹⁰Solijonov Y.Nutq va uslub.T.2002.

isbotlaydi.

Birinchi dialogdagi bayon ko`proq savol-javob tarzida olib boriladi. Hikoyachining o`zi savol berib, unga o`zi javob izlaydi. Masalan, Navoiy chizgan „Zanjirband sher” rasmiga qarab suhbatdoshimiz bizdan „sher ham qachondir zanjirga solinganmi?”, „Bu sher Alisherning o`zimi?” deya savol tashlaydi-da, ishonch bilan „Bunga shubha yo`q” deydi va fikrini shoir ismidagi „sher” qo`shimchasi bilan isbotlashga urindi. Dialog so`nggida esa „Bu qanday zanjir? Nima uchun u zanjirda? Uni zanjirga solgan kim?” deb so`raydi. Ammo bu savollarni javobsiz qoldiradi. O`zi javob izlab, she`r tahliliga kirishadi, mushohadaga berildi. Shu jarayonda uning oldida yangi-yangi tugunlar paydo bo`lganligini ta`kidlaydi. Hikoyachining savoliga tegishli javobni o`quvchi to`rtinchi dialogdan oladi.

Ikkinchi dialogida Alisher Navoiy bilan Husayn Bayqaro munosabatlari to`g`risida gap ketadi, ko`p yillar mobaynida chigallashtirilgan bu masalaga ba`zi aniqliklar kiritiladi. Zero „Alisher hayotini Husaynsiz tasavvur qilishning umuman imkoni yo`q!” (26-bet). Navoiy va Bayqaro o`rtasidagi munosabatlarni oydinlashtiruvchi ko`plab rivoyatlar keltiriladi, ularning rost va yolg`onligini isbotlashga urinadi. Vaqti vaqti bilan hikoyachi lirik chekinish qilib, o`zining oilaviy tashvishlari haqida ham qo`shimcha axborot berib boradi. Bu bayonning oshiradi, dialogga jon kiritadi, hikoyachi suhbatdoshni o`quvchiga yaqinlashtiradi.

Uchinchi dialog „Hayrat” bo`limi xuddi shunday-er-xotinning mini-dialogi bilan boshlanadi. Bu mini-dialog romanda biron bir muammoni ko`tarmaydi, shunchaki Navoiy to`g`risidagi yirik dialogga turtki vazifasini bajaradi xolos. Endi gap Alisherning yoshligi, uning bolalikdan shakllangan inson bo`lib yetishuvi haqida boradi. Dialogda Alisherning yoshligi bilan chambarchas bog`liq bo`lgan „O`sha davrdagi uch holat” qalamga olinadi. Bu uch holatning har biri Alisherning ulg`ayishida muhim bosqich hisoblangan va butun hayotida chuqur iz qoldirgan muhim voqealardir. Birinchi holat to`rt-besh yashar Alisherning „Mantiq ut-tayr” maftuni bo`lishi, ikkinchi holat Shohruh Mirzo vafotidan keyin

boshlangan besaranjomlik sababli Iroqqa ko`chayotgan Alisherning Taft shahrida buyuk tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiy bilan uchrashuvi, uchinchi holat esa sakkiz-to`qqiz yashar Alisherning Iroqdan Hirotga qaytishida ot ustida uxlab qolib, bepayon cho`lda adashuvi, chaqanganda ro`parasida katta idishda kimdir hozirgina keltirib qo`ygandek „...muzdek. Tiniq.Toza.Totli.” Suv – mo`jizaning paydo bo`lishidir. Hikoyachining guvohlik berishicha bu haqida na otasiga, na birodarlariga umrining oxirigacha ham aytmaydi! Va bu mo`jiza xotirani xuddi Sharafiddin Ali Yazdiy bilan bo`lgan totli uchrashuv kabi doimo hayrat bilan eslab yuradi.

To`rtinchi dialog eng shiddatli, eng keskin xarakterga egadir. Unda hikoyachi suhbatdosh endi avvalgi dialoglardagi singari o`quvchisiga murojaat qilmaydi. Balki Navoiy ijodini tadqiq qilgan olim bilan jiddiy munozaraga kirishadi. Bu dialogdagi u go`yo o`quvchini butunlay esdan chiqaradi, butun diqqati qarshisidagi olimga qaratadi va uni II shaxs shaklida- „Sen” deb ataydi. Garchi olimni „Sen” deb atashi bizga biroz erish tuylsa ham uning timsolida butun bir kommunistik mafkura nazarda tutilganini inobatga olsak, hikoyachi Abdulxayrning bu bepisandligini kechirish mumkin.

Biz hikoyachi „men” ni shartli ravshda avtor deb tasavvur etishiga haqlimiz. Chunki uning hikoya qilish va yozish uslubigina emas, balki fikrlash tarzi ham baayni Omon Muxtor uslubini eslatadi. Yozuvchining „Ffu”, „Ayollar mamlakati va saltanati”, „Tepalikdagi xaroba” romanlarida avtor bayonini qavs ichida berilgan izohlar bilan to`ldirish uslubi unumli qo`llanilgan edi. Xuddi shunday holat „Ishq ahli” romanining hikoyachisi Abulxayr kundaligida ham ko`p uchraydi. Bunday izohlar avtor fikrining davomini anglatadi: „maktabda kitoblar arabiy va forsiy edi (Turkiydan har kim o`zicha ta`lim olar, turkiy go`yoki „uy tili” edi)” ; Izohlaydi: „Bolalar (o`quvchilar) o`zlariga tegishli saboqni olib baqrib o`qishar edi; unga aniqlik kiritadi; U (mushtdek bola) nasrdan ba`zan o`qir, nazmga ko`proq qiziqar edi” va hokazo.Bora-bora bu qavs ichidagi gaplar izohlash vazifasidan chiqib, hikoyachining o`quvchi-suhbatdoshiga bevosita

murojaati shaklini oladi. Ushbu to'rtinchi dialogda muallif Navoiyning „barcha asarlari Yor haqida!” ekanligini ta'kidlab, misollar bilan „isbotlab” beradi. So'ngra o'zi fikrlarini umumlashtirib, „Demak”, „Yor ko'yida” uning yozganlari, asosan: „Oллоhga, Shohga, Chiroyli odamga, Guliga bag'shlangan” deb yakunlaydi. Qarasa, suhbatdoshi (endi olim emas, o'quvchi)ning yuzidagi savol alomati paydo bo'libdi. Hikoyachi-avtor uning aytilmagan savolini eshitadi va ovoz chiqarib takrorlaydi: „Shu xolosmi (deyapsizmi degandek-Y.S.)?! Ozigina sabr (qiling –Y.S.)!gap hali tugagani yo`q” deydid, mulohazalarni davom ettiradi.

Bu dialog so'ngida birinchi dialogda o'rtaga tashlangan „Zanjiband sher” rasmining mohiyati haqidagi tugun yechiladi. Yuqorida aytganimizdek, birinchi dialog oxirida hikoyachi „Bu qanday zanjir?! Nima uchun u zanjirda? Uni zanjirga solgan kim?!” degan savollar qo'ygan, ammo ularni javobsiz qoldirgan edi. Javobni o'quvchi hikoyachi-musavvirdan ana shu to'rtinchi dialogda eshitadi: „Alisherdan hech kim xalq bilan birga, dunyodan iztirob chekib o'tishini (xalq uchun o'zining hatto shaxsiy hayoti, o'z baxtidan voz kechishi) talab qilgani yo`q! Uning o'zi shu „qattig`”yo'lni tanlagan. U o'zini „jilovlagan” xolos!

Darvoqe...„zanjirband sher”.

Mana, endi bu rasmning ma'nosini angladim”.Bitta tugun yechiladi, o'quvchi qalbiga yorug'lik tushadi.Uqoniqish hosil qildi. Oxirgi-beshinchi dialog qolgan barcha tugunlarning yechimini beradi. Bu dialogda sirtidan qaraganda butun gap go'yo Husayn Boyqaro to'g'risida borgandek tuyiladi.Aslida esa temuriyzodalar orasida eng uzoq muddat mamlakatni boshqargan Boyqaro o'z faoliyatida kimgatayanaadi? Kimning ko'magi bilan boshqaradi? Yaxshi bilamizki, unga faqat qarindosh-urug'larigina emas (Yodgorbek Mirzo singari), balki o'z farzandlari ham (Badiuzzamon kabi) to'xtovsiz toj-taxt uchun kurash olib borgandilar. Dialogdan ma'lum bo'lishicha, Husayn Boyqaroning yagona tayanchi, ishongan tog'i Alisher Navoiy edi! Shoir vafotidan keyin Boyqaro saltanatida ham parokandalik boshlanadi.

Romanda bundan tashqari yana bir dialog shakli uchraydi. U ham bo'lsa voqealarda mutlaqo qatnashmaydigan „kasbi hisob fani bo'lgan“ Odil ismli yigitning suyuqlisi Barno bilan xat orqali olib borgan muloqotdir. Asarda Odilning to'rtta maktubi berilgan bo'lib, uchta Barnoga, bittasi-so'nggisi do'sti Xolidga yozilgan. Xat aslida dialogning yozma shakli hisoblanadi. Binobarin, xatda suhbatlashayotgan tomonlardan birining ichki va tashqi qiyofasi, xarakteri namoyon bo'ladi. Odilning maktubida esa biz birato'la ikki kishi – ham Odil, ham Barnoning ichki olami, bir-biriga munosabati bilan tanishamiz. Rassom Abulxayrning Navoiy haqidagi daftarlari tufayliular bir-birlarini yanada yaxshiroq bilib oladilar va haqiqiy ishq ahli qatoriga qo'shiladilar. Shunisi borki, bu maktub-dialoglarning vazifasini faqat asar kompozitsiyasini to'ldirish bo'limlarini bir-biriga bog'lash, daftar-dialoglarning qaytarzda yaratilganligini izohlashdangina iborat emas. Romanning „Armon“ deb nomlangan uchinchi bo'limida bu maktublarning yana bir xizmati ma'lum bo'ladi. Bu maktubda Abulxayrning daftarlari bahonasida umuman asar uslubiga aniqlik kiritiladi. Yozuvchi O.Muxtor Odil tilidan „...*bu daftarlardagi yozuvlarni adiblarning asarlari yoki olimlarning kitoblariga qiyoslash uncha to'g'ri emas. Buning bir kishining, rassomning kuzatishlari deb qabul qilgan durust*“ deydi.

Yana Odilning so'ziga quloq solaylik: „Rassom (demak, yozuvchi-Y.S.) asosan, Navoiy rasmini (yozuvchi esa shoir obrazini, qiyofasini-Y.S.) qay tarzda chizish (yaratish, tasvirlash-Y.S.) ustida bosh qotirgan. Menimcha, uning (yozuvchining-Y.S.) yozganlarini shu yo'ldagi izlanish deb tushunish kerak. U nimalarnidir anglab-anglamagan bo'lishi ham mumkin! Navoiy shunday bir zotki, uni bir umr o'rganmay iloj yo'q...“.

Omon Muxtor romanlari orasida O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofotiga sazovor bo'lgan „Ishq ahli“ va „Buyuk farrosh“ romanlaridan tarkib topgan „Navoiy va rassom Abulxayr“ dilogiyasi alohida ajralib turadi. Bu dilogiya ilgari Navoiy haqida yaratilgan asarlarini takrorlamaydi. Yozuvchi ularga taqlid qilmaslikka intiladi va ulug' mutafakkir ijodidan mantiqli umumlashmalar,

favqulotda go`zal ma'nolar topadi. O`rni bilan Payg`ambarlarva sahobalar tarixi, shuningdek, „Chor darvesh” tipidagi asarlari, Yassaviy hikmatlariga ham murojaat qiladi. Navoiy asarlarida ifoda etilgan ruh, qorishiq tuyg`ular silsilasidan uning shaxsiyatini keltirib chiqarishiga, uni kashf etishiga urinadi. Shu ulug`vor ruh ma`rifatidan bahramandlik tuyadi.

Yozuvchining bu romanni yaratishidan ko`zlagan maqsadi Navoiy ijod psixologiyasini ochib berishdan iborat edi. Asarning syujet qurish usullari assotsiativlikka asoslangan bo`lib, kompazitsoin qoliplash usulidan unumli foydalanilgan. San`atkor asosiy diqqatini tasvirlanayotgan voqealar dinamikasiga qatirib, ularning mag`zini chaqishga intiladi. Shuning uchun ham Navoiyning qalb dialektikasiga e`tiborni kuchaytiradi hamda o`z xotiralarida jonlangan voqealarga keng o`rin ajratadi. Boshqacha aytganda, epik voqealar ichki hissiy jarayonlar hisobiga yanada boyiydi. Muallif Navoiyning xalq va mamlakat hayotidagi o`rnini tayin etish uchun Ismoil Somoniy, Amir Temur davrlaridagi kuchli markazlashgan mamlakatdagi yuksalish, taraqqiyot, obodonchlik, ilm-fan, san`at va madaniyat gullab-yashagani-yu xalq osoyishtaligini keyingi shahzodalar davri bilan qiyoslaydi. Alisher qismatini Husayn taqdiridan ajratib qaramaydi. Uni Sulton Husaynning doimiy ishonchli maslahatchisi, mamlakat osoyishtaligining garovi deb biladi: „*Alisher hayotining (tug`ilgan kunidan vafot etgunigacha) har bir damida Husayn „ro`parada” turadi. Va aksincha, Husayin ostonasi ham, mehrobi ham-Alisher!*

Alisher saroyda yuribdimi, yo`qmi- Husaynning hayolida turadi. Atrofdagi shahzodalarning taxt ustida jangimi yoki o`z o`g`illari- shahzodalarning (otaga qarashi nizolarimi?!)-Husayn bir ish qilolmaydi.

Albatta Husayin-shoh. U-mamlakatni boshqaradi. Hamma qatori Alisher ham uning oldida qo`l qovushtirib turadi. Ammo, osoyishtalik-Alisherning vazifasi umuman saltanatni qo`lga kiritgan-Husayin! Saqlab turgan-Alisher!

Saltanat oldida Husayn qanchalik mas`ul bo`lsa, Alisher shunchalik javobgar!

Saltanat Alishersiz „ nafas olmaydi’’(45-bet)! deydi. Omon Muxtor.

Inqiroz jarayonidagi o'ttiz yildan ortiqroq davr osoyishtaligi nafaqat sulton Husayn iqtidori, balki uni xayrli amallarga undagan Navoiy salohiyati bilan chambarchas bog'lab talqin qilinadi. Ikki inson o'rtasidagi sharqona mehr-oqibat, olijanoblik, sadoqat tuyg'ularini ulug'lab, mamlakatdagi fayzli holatining o'sha go'zal do'stlik mevasi ekanligini ko'rsata oladi. Asarda tuyg'ular, o'ylar, xotiralardagi jilvalar ta'svir obyekti ekan, ruhiy olamdagi behudud poyonsizlik, shubhasiz, tadqiqni talab etadi. Romanda inson taqdiri va qismati orqali uning ruhiyatini aks ettirish negizida jamiyat qiyofasi hamda ruhini namoyon etish, zamondoshimizning mas'ullik tuyg'usini kuchaytirishga intilish tamoyili kuzatiladi. Badiiy-siyosiy g'oyani falsafiy idrok etish, talqin qilish orqali jamiyat ruhiyati ochiladi, tarix va qismat orqali ibratli xulosalar chiqariladi.

Dilogiyaning ikkinchi kitobi „Buyuk farrosh’’da Alisherni iloji boricha yuqoridan pastga tushuradi, uni oddiy odamlarga yaqinlashtiradi. Asarda Navoiyning jorubkash ya'ni farrosh ekanligi bir qarashda g'ayritabiiydek tuyuladi. Ma'lumki, dunyo g'avg'olaridan kechikishni tilasada, o'z o'rnini saltanat va jafokash el orasida deb bilgan Alisher Navoiy hayotsevar inson bo'lgan. Ammo o'z hayoti poyonida uning oxirat to'g'risida chuqur o'ylarga tolqani, g'animat umrini ibodat va ijod bilan o'tkazishni orzulagani ham rost. Ularning oddiy ishlarni bajarib, faqirona yashashni or deb bilmasligi aslida to'g'rilik va halollik, iymon va shukronalik belgisi. Osiy bandaning e'tirofi olamdagi barcha sahvunohlar uchun javobgarlikka mas'ulligi, jaholatga qarshi turishining tub mohiyatini ham belgilaydi. Oxirat hisobiga chora izlayotgan kishining hayollari esa o'kinch va armon barobarida mahzunona umidvorlik hamda taskin qorishqligida kechadi. Navoiy dunyoviy muhabbat havasidan xalos bo'lishga intilar ekan, Alloh ishq uning ko'nglini zabt etdi. Binobarin, ichki ehtiyoj shoir nigohini yerdan ko'kka ko'chiradi ya'ni ruhini yuksaltiradi. Demak, uning ishq haqidagi iqrorlari ham yeru osmon orasida.

Xoja Abdulla Ansoriy mozori jorubkashi sharafiga musharraf bo'lish aslida ana shu muborak ostonani suprish-ozoda saqlash bahonasida ajdodlar ruhidan bahramand bo'lmoqlikdir. Omon Muxtorning g'oyaviy maqsadini biz „*Foniy dunyoda boqiy bo'lishining iloji yo'q. „Baqa guliga sabot’’ yo'q, faqat „yaxshlik bila ot (nom) qolishi saodati! Ya'ni dunyo gunohlaridan forig', ozoda, yorug' bo'lishi uchun vaqti-vaqtida kimdir jorubkashlik (farroshlik) qilishi kerak!’’* degan so'zlari orqali anglar ekanmiz, „farrosh’’ Navoiyning buyukligi tarix va zamon mujassamlashgan makon-qabristonda turib olamni poklash niyatida, shukrona keltirib, ertadan umidvor bo'lib yashashidagina ko'rinmaydi. Uning ezgu amallari: ulkan ziyoratgohning mas'ul va mutasaddi rahbari sifatida olimlar va hodimlar, zaif hamda miskinlarni siylash; ma'naviy pirlarga baland e'tiqod bu ostonani obod qilish, ramziy-majoziy ma'noda zamonasining barcha bedodliklarini zaminidan surib tashlashga bel bog'lash; o'zini xokisor tutib ruhini yanada poklash odamlar qalbiga yo'l topib, ularga shafqat nazari bilan qarash; umuman esa mamlakatda ozoddlik va obodlikni ta'minlashga intilishdan iboratdir. Demak romanda toat-ibodat va ijod Navoiyning asosiy yumishi bo'lib qolmaydi. Muayyan muddatdan keyin u yana siyosat maydoniga chiqadi. Tadbirkorlik va shijoat ko'rsatadi. Saltanatni yemirilish halokatidan asrab ozodlikni orzulaydi, nur va ziyo ulashadi. Ko'ngli g'oyatda nozikligi bois ba'zan injiydi, ranjiydi. Ammo hech qachon aniq maqsaddan chalg'imagaydi. Mehnatda fidoyilik ko'rsatadi. O'ziga qattiq ishongan murosasiz haqiqatparvar, isyonkor ruh egasi sifatida jur'at va jasorat bilan haqiqat va adolatni himoya qiladi.

Bag'ri keng va olijanob shaxs bo'lgan Navoiyning Oddiy inson sifatidagi hayoti hukumdorlik va faqirlik orasida kechgan. U Ollohni qalbida tanigan. Ammo bu yo'l insonni sevish orqali ulkan muhabbatga erishish tarzida kechgan.

Ko'rinadiki, romandagi Navoiy ma'naviy pirlarga etiqodi baland, xayr-saxovatli binokar, himmati baland mehribon inson sifatida fuqaroga shafqat nazari bilan qarab, uning qalbiga yo'l topuvchi kishidir. Yozuvchi qalb va qiyofa birligini ta'minlash yo'lidan borib, o'tgan umrini sarhisob qiladigan xokisor e'tiqod kishisi,

o'z maqsadlarini aniq belgilab olgan fidoyi insonning shiddatli ruhi, adolat vahaqiqat tantanasi uchun kurashdagi mehr-shafqatni ulug' darajasiga munosib tarzda tasavvur qiladi hamda tasvirlay oladi.

Bugungi o'zbek adabiyoti, xususan, nasri inson ma'naviyati qirralarini tekshirish, ruhiyatidagi ko'z ilg'amas sezimlarni tadqiq etish sari intilayotgan ekan, shunga hamohang tarzda romanda o'ychil inson tafakkuri va hissiyoti to'la namoyon bo'lgan. Asar Navoiyni to'laroq anglash, uning fikr tarzi, axloqiy qanoati, e'tiqod yo'sini jihatidan his va idrok etish imkonini beradi. Bu roman-dilogiya yozuvchining yuqori va ancha mukammallashgan uslubiy yutug'i bo'libgina qolmay, navoiyshunoslik, navoiyxonlik olamida o'ziga xos badiiy tajriba, shuningdek o'zbek adabiyoti taraqqiyotida ko'zga tashlanadigan muhim yangilik hamdir.

Omon Muxtor tafakkuri va ruhiyatidagi Navoiyga oshuftalik keyingi bir qator romanlarida ham ko'zga tashlanadi. Jumladan, "Odamlar kulishlari kerak" nomli roman qahramonlarini yozuvchi barcha teng bo'luvchi maskan hammomda tasvirlaydi, "Xotin podshoh" romanida esa yaratilish jamiki narsalarda yaratuvchi tajalin zikr etishi, adolatga sadoqat va ichki intizom tuyg'usi olamni go'zal, insonni sarafzor etishi, bandaning iymoni sof, o'zi savob amallarga kamarbasta bo'lsa, so'z va ish birligini ta'minlay olsa, bundan ulug'roq baxt yo'qdir, - degan xulosalarga keladi.

Nazarimizda bunday fikr-qarashlarning barchasida navoiyona donishmandlikdan o'zlashtirilgan hayot falsafasi yorqin namoyon bo'ladi.

Umuman, bugungi o'zbek romani o'ziga xosligini ta'minlash, undagi sharqona ruhini kuchaytirish, falsafiy fikr salmog'i va ta'sirchanligini oshirish, ifoda jilosini yangilashda Omon Muxtorning ham o'ziga xos o'rni bor. Yozuvchi tinimsiz izlanishlar natijasida milliy-adabiy an'analar bilan bir qatorda, yangi shakily-uslubiy tamoyillariga murojaat etib, G'arb va Sharq adabiyotini muayyan darajada sintezlashtirishga salmoqli ulush qo'shib kelmoqda.

II BOB. “NAVOIY VA RASSOM ABULXAYR” ASARINING STRUKTURAL TAHLILI.

2.1. Asarda izoh gaplar va remarkalardan foydalanish mahorati.

Omon Muxtorning “Navoiy va rassom Abulxayr ” romanlarini struktural tahlil qilar ekanmiz , tahlil jarayonida asarda qo'llangan izoh gaplarga murojaat qilamiz. Izoh gaplar matnning umumiy mazmuniga aloqador bo'lsada, gapdagi biror bo'lak bilan hokim tobelik aloqasiga kirmaydi, shuning uchun ular gapdagi boshqa bo'laklardan vergul, tire, qavs bilan talaffuzda esa kichik to'xtam bilan ajratiladi.

Izoh gaplar so'zlovchining o'zi bayon etayotgan fikriga munosabati (ishonchi , gumoni, tasdig'i , inkori)ni, fikrning birovga nisbatlanishi mansubligi, aloqadorligi, o'z fikri tarkibiy qismlarining ahamiyatliligi darajasi (birinchidan, ikkinchidan), fikrga va uning tarkibiy qismlariga doir bayon etadigan qo'shimcha axboroti yoki izohi rang – barang ma'nolarni ifodalaydi. Omon Muxtor romanda o'z dunyoqarashidagi fikrlarni, o'ylarini kitobxonga yetkazishda izoh gaplardan keng foydalangan.

Izoh gaplar so'zlovchi bir fikrni ifodalayotgan paytda shu fikrga oid izoh, qo'shimcha axborot berish ehtiyoji bilan qo'llanadi . Izoh gaplar yozuvda qavs ichida , ba'zan vergul yoki tire bilan ajratilgan holda beriladi.

O.Muxtor asaridan olingan misollar orqali muallifning Navoiy dahosiga bildirgan ishonchi , shu bilan birga biroz gumonini ham ko'ramiz. Bu ma'lumotlar izoh gaplar shaklida berilgan bo'lib, Navoiy to'g'risidagi noma'lum bo'lgan tushunchalarga biroz oydinlik kiritishga xizmat qilgan.

Alisherning “loyi” osoyishta, ko'rkam yashab ketadigan “tuproq”dan olinmagan. Uning manglayiga DAHO bo'lishi uchun avvaldan fojea muhri bosilgan! (U qisinib, negadir odamlardan o'z hayotini yashirgandek edi!Axir , hech bo'lmaganda , ota- onasi yoki ustozlari haqida batafsilroq yozmaydimi?! Uzoqdagi begonalar to'g'risida istagancha so'zlash mumkin! Chunki bularning

unga dahli kam... Balki bu kamtarlik belgisidir?! Balki, nomu nang , shaxsdan ko'ra xizmatni yuqori qo'yish natijasidir?!)

(Uning asarlari qaysi ohangda bo'lmasin , hayotda u kulfatlarga o'zini e'tibor bermagandek tutganini ko'ramiz. Atay o'ylamaslikka uringanmi?!)
(O'sha asar.16-bet)

Ma'lumki, Navoiy she'riyat, siyosat, harb ishi, me'morchilik kabi sohalarda yuksak bilimga ega bo'lgan. Yozuvchi O.Muxtor ham Navoiyning ko'plab sohalarda iste'dodli va mohir bo'lganligiga alohida e'tibor qaratadi. Navoiyni musiqada mohirligini ta'kidlab, rassomchilikda ham yuqori bilimga egaligini isbotlash uchun izoh gapdan foydalanadi:

*Alisherning musiqada mohir bo'lganidan xabarim bor. Cholg'udan, navodan uzoq shoirlarni, nega bilmaysan, deb tergagan paytlari ko'p. Ammo u rasmda ham savodli ekan-da (**Behzoddek rassomlar unga ustoz deb qaragan**).*

Muallif ayrim o'rinlarda mazmunni kuchaytirish, ta'kidlash ma'nolarida izoh gaplardan ustalik bilan foydalangan. Izoh gaplarning alohida, qavsda ajratilib berilishi o'quvchining e'tiborini tortadi va yozuvchining nimaga urg'u berayotganligini tushunadi.

*Muhimi, Xirotda "qo'l – oyog'i bog'liq" Alisher Samarqandda erkin nafas olgan, mutolaaga berilgan (**chuqur bilim egallagan**), to'lib-toshgan yangi- yangi asarlar yozishga erishgan, butun Arab va Ajamda e'tiborli Shaxsga aylangan edi!*

O.Muxtor Navoiyning ichki kechinmalari, o'y-hayollari, yuragining tubida bo'lgan sodir bo'lgan jarayonlarni tasvirlashda ham izoh gaplarning xizmatidan foydalangan. Jumladan, Navoiy Xusayn Boyqaroga xizmat qilishni havas deb bilgan emas. U, avvalo, ota-bobolarining xizmatini davom ettirish, xalq va davlatni yuksaltirishda o'z vazifasini bajarish majburiyati, do'stiga sadoqat bilan xizmat qilish mas'uliyatini bir zum ham unutmagan (agar u xohlaganda Husayndan hokimiyatni tortib olishi ham qiyin emasdi). Navoiy qalbining tubida joylashgan majburiyat, mas'uliyat kabi tushunchalar izoh gaplar orqali anglashiladi.

“Alisherning shohlarga munosabati yaxshimi yoki yomonmidi?! Darhol javob berish qiyin.

Bobolari yo'lini tutadi. Shohlardan uzoqlashib (uzilib) ketgisi yo'q. Ular dargohida xizmat qilgisi keladi.” (38-bet)

(Umri so'ngigacha Husaynni ulug'laydi. Husayn ozgina loqaydlilik ko'rsatgan paytlarda iztirob chekadi!)

Xalqimizda “sher oldida yashagan (boqilgan) qo'y hech qachon semirmaydi (rohat ko'rmaydi)” degan hikmat mavjud. Navoiyning umrini, yashash holatini mazkur hikmatga qiyoslash mumkin. Avvalo, Husayn Boyqaroning ham aqliga va sabriga alohida e'tibor qaratish lozim. Agar boshqa shoh bo'lganda ig'vo va tuhmatlarga ishonib Navoiyni ancha oldinroq qatl ettirishi mumkin edi. Shohlarning umumiy xususiyati va fe'l-atvorlarini inobatga olgan holda aytish mumkinki, Navoiy ajdarho oldida yashagan. Hikoya qiluvchining dilidan o'tishi mumkin bo'lgan mazkur fikrlarni ifodalashda O.Muxtor yana izoh gap xizmatidan foydalangan.

“Shohlar oldin-da bosh indurma ko'p...

Buning ustiga negadir shohlardan “qochish” ga harakat qiladi:

O't naf' yetkarur iroqdin ,

Andin muntafe' bo'lmoq avlo qiroqdin...

ya'ni chetroqdan “bu o't”da “isingan” ma'qul!

(Birgina o't bo'lsa ham mayli, shoh degani: “Ajdahol! O'tlar sochur...”)(38-bet).

Bilamizki, Navoiy bir qator yuqori lavozimlarda faoliyat olib borgan. Lekin bu lavozimlarda u qiziqqanligidan yoki mansabparastligidan ishlamagan. Majburiyat tufayli, Husayn Boyqaro unga shu vazifalarni topshirganligi uchun

bajargan. Aslida Navoiy xarakter jihatdan amalga, mansabga qiziqmagan. “Shoh”likning g‘avg‘olaridan ko‘ra, “gado”likning tinchligini afzal bilgan. Yozuvchi O.Muxtor Navoiyning ushbu xislatiga alohida e‘tibor qaratgan va gadolarning gunohi ohiratda ham shohlarnikidan, albatta, oz bo‘lishini izoh gap orqali ta’kidlaydi.

“Alisher “shoh va gado (hukmdor va darvesh)” degan , shohlikdan hayotda gadolik (darveshlik)ni ustun qo‘ygan ming yillik falsafaga suyangan.

(Faqat bu dunyoda emas, “hisob o‘lg‘onda”, oxiratda ham “shohdin yengilrakdir gado”!)

Navoiy o‘z ijodida “orzusidagi shoh” obraziga ko‘p e‘tibor qaratgan. Uning nazdida shoh xalqparvar, odil, o‘z o‘rnida qattiqqo‘l (va hokazo) bo‘lishi lozim. Navoiyning hayolidan, yuragidan o‘tgan mazkur fikrlarga o‘zi doimo amal qilib kelgan va Husayn bilan bir qatorda u ham norasmiy “shoh”ga (obro‘ jihatdan Xusayndan qolishmaganligini bilamiz) aylangan. Ya’ni orzusidagi shohni o‘zi reallashtirgan. O.Muxtor ushbu fikrlarni ifodalashda ham izoh gaplardan unumli foydalangan.

“Osoyishtalik- Alisherning vazifasi. (Faqat o‘zi emas, Mamlakat osoyishta bo‘lishi kerak!

Umuman, saltanatni qo‘lga kiritgan - Husayn!

Saqlab turgan - Alisher!)(44-bet).

O.Muxtor Navoiyni ulug‘ daho sifatida tasvirlash bilan birga, ayrim o‘rinlarda uning ham oddiy inson ekanligiga urg‘u beradi. Uning hayoti yoki ijodida ham kamchiliklar bo‘lishi mumkinligini tabiiy holat sifatida qabul qiladi. Adib ijodidagi kamchiliklarni asoslash uchun keltirilgan sabablarni izoh gap sifatida beradi:

“Dunyoda mukammal tasvir bo’lishi qiyin.

(Zahiriddin Bobur Alisher ijodiga qiziqib, uning she’riyatini “ko’b va xo’b” degach qaysidir yozmalari haqida, nazarimda, mukammallik yetmaydi debdi. Daho inson ijodida ham shunday bo’lar ekan!)

Ba’zan his so’nishi - so’vish mumkin.

Ba’zan esa “bir narsalar” ortiqcha ham tuyiladi

Tasvir bilan tasavvur harholda farq qiladi.

(Alisherning ayrim asarlari chala qolgan, ayrim niyatlari hatto amalga oshmagan ekan. Nega?! Daraxtdagi meva ham bir vaqtda va bir xilda pishmaydi. Buning ustiga, tasavvur tasvirga aylanishga ulgurmagan!)

Ma’lumki, she’riyat insonning his tuyg’ulari ifodasi sifatida yuzaga keladi. Shu jihatdan olib qaraganda Navoiy kuchli his-tuyg’u egasi, ehtiros egasi bo’lgan deyish mumkin. Chunki kuchli ehtirosi va his-tuyg’usi bo’lmagan inson bunchalik “ko’b va xo’b” yozmagan bo’lar edi. Ayrim ijodkorlar xarakteriga nazar solinganda, ehtirolarni jilovlay olmaslik kuzatiladi. Bu holat Navoiy xarakteriga xos emas. U har qanday kuchli hayajonni ham, ehtirosni ham jilovlay olgan. Navoiyning ushbu hislatlariga ham O.Muxtor izoh gaplar shaklida e’tibor qaratgan.

“Alisher kattalar oldida o’zini osoyishta tutadi. (Shu o’rinda aytish kerak. Ba’zi asarlar bor, u bolalikda bijillab har narsani gapiradi. “Donolik” qiladi! Aslida bosiq - o’ychan turish unga xos. Ko’p tinglab, kam so’ylaydi. Ajabki, bir umr o’z ehtirosini u faqat qog’ozga ishongan! Cheksiz hayajon, kuchli ehtiros egasi bo’la turib, atrofdagilarga buni, odatda, oshkor qilmagan!)” (61-bet).

Yozuvchi Omon Muxtor ham o’zining so’nggi yillarda yaratgan romanlarida mavjud dialoglarning strukturasi hamda mazmunida talay o’zgarishlar ro’y berishiga munosib hissa qo’shdi. Sirtidan qaraganda adib asarlarida dialogga ko’p

ham o'rin beravermagandek , shunchaki zarur bo'lganda ularni qo'llagandek ko'rinadi. aslida ham ijodning talabi shunday. Biroq sinchiklab qaralsa, dialoglarning asar syujeti va kompozitsion qurilmasiga uzviy singib ketganligiga, muallif bayonining to'laqonli a'zosi sifatida voqeilik dinamikasini rivojlantirish hamda xarakter yaratishda muhim ahamiyat kasb etganligiga ishonch hosil qilamiz. Bu jihatdan tarixiy mavzuda yozilgan "Ishq ahli " romani ibratlidir¹¹.

Badiiy asarning muhim komponentlaridan biri hisoblangan dialog shaklidagi asarlar o'zining mustaqil qurilish tizimiga va qat'iy tartib – qoidalariga ega. Dialog muallif bayoni bilan chambarchas bog'langan holda rivojlanadi. U bayon tarkibini tashkil etishda muhim ro'l o'ynaydi va nutq sistemasidan holi tarzda mavjud bo'la olmaydi. Aksincha, tanlangan bayon tipi badiiylik shartlarini bajarishga bo'ysundiriladi hamda dialog bilan muayyan mutanosiblikda va moslashuvda namoyon bo'ladi. U syujetni rivojlantirish, xarakterni takomillashtirish, konfliktni keskinlashtirish, personajlarning ichki dunyosini chuqurroq ochishga xizmat qiladi. Muallif bayonini tashkil etish, uning qamrovi va ko'lamini aniqlash, ta'sirchanligini oshirish ko'p jihatdan dialoglarni qurish mahorati bilan belgilanadi. Asar strukturasida nutqning o'ziga xos tashqi ko'rinishini saqlash, personajning fe'l-atvori hamda xatti- harakatlarini to'la ifodalash mazmunni tubdan boyitadi, unga qo'shimcha ma'no baxsh etadi. Boshqacha aytganda, asarda ishtirok etayotgan personaj kechinmalarining butun bir yig'indisi aynan dialogda ayon bo'ladi. Shuni nazarda tutgan mohir san'atkorlar o'z asarlarida dialoglarni bir-biriga bog'lash yoki ularni izchil davom ettirish, mazmunni yangi tafsilotlar hamda ma'lumotlar bilan boyitish, qahtamonlarning ruhiy holatini ishonarli tasvirlash uchun personajlarning xatti-harakatlari jesti (oyoq, qo'l, laborqali imo-ishora qilish)ga alohida e'tibor beradilar va ular orqali bir butun tasviriy-axborot majmuini yaratishga erishadilar. Bunday dialog matnlarida so'zlovchining xarakteri va ruhiy holatini bevosita muallif nutqi hamda tasviriy izohlarisiz

¹¹Muxtorov O. Ishq ahli.// Sharq yulduzi.2001. №1.

tasavvur etib bo'lmaydi ¹². Dialog strukturasiga chuqurroq kirib borgan sari uning hali hanuzgacha tadqiqot ob'yekti bo'lmagan qirralariga duch kelaveramiz. Shulardan biri va usiz dialogning vujudga kelishi mumkin bo'lmagan qanoti hisoblangan remarka masalasi hisoblanadi.

Avvalo, remarka atamasiga berilgan ta'riflar bilan tanishib chiqaylik. Adabiyotshunoslik terminlariga oid lug'atlarning barchasida remarka dramatik turga xos element sifatida izohlangan ¹³.

Buni lug'at tuzgan adabiyotshunoslarning kamchiligi deb emas, balki nasriy asarlardagi dialog strukturasining yetarli ishlanmaganligida, dialog tarkibida muhim o'rin tutadigan remarka elementlarining funksional xizmati tor tushunilganida, ularning vazifasini birgina dramatik asarlar doirasida cheklab qo'yilganligida deb bilmoq kerak ¹⁴.

Remarka o'zbek tilida "izoh" degan ma'noni anglatadi. "O'zbek tilining izohli lug'ati" da "izoh" so'ziga ikki xil sharh berilgan:

1. So'z, ibora yoki voqea-hodisa va shu kabilarga tushuntirish, sharh.
2. Tekstning ayrim yeriga kiritilgan yoki ayrim masalaga berilgan qo'shimcha ma'lumot, tushuntirish, eslatma, uqdirish ¹⁵.

An'anaga ko'ra remarka termini dramatik asarlarga nisbatan qo'llanib kelingan bo'lsa, epik asarlarda dialogning keng o'rin olib borishi barobarida termin epik asarlarga nisbatan ham qo'llanila boshladi. Hozirda epik asarlardagi dialoglar davomida muallif tomonidan berib boriluvchi (ovoz toni, ohang, temp, pauzalar, mimika, imo-ishoralar, personajlarning harakati) izohlar ham ko'pincha remarka deb yuritilmoqda ¹⁶. Badiiy asardagi remarka bayon kimning tilidan olib borilayotgan bo'lsa, o'sha hikoyachining nutqi orqali yaratiladi.

Remarka bevosita muallif nutqi tarkibiga kiradi yoki uni kuzatadi, ma'lum maqsad sari yo'naltiradi. Biz yuqorida keltirganlarimiz kiritmalar, kiritma gaplar

¹²Solijonov Y. Dialog qurilishi va uning elementlari.// O'zbek tili va adabiyoti. 2010.№ 3. – B3.

¹³Тимофеев Л. Венгров Н.Краткий словарь литературоведческих терминов М. 1963. стр 128.

¹⁴Solijonov Y. Nutq va uslub. T. 2002.

¹⁵O'zbek tilining izohli lug'ati. 2 tomlik, 1-tom. M. 1981. –B.318.

¹⁶Quronov D va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug'ati. T. 2010. –B248.

dramatik nutqda remarka deb yuritiladi.

Dialogning ta'sirchanligini ta'minlaydigan omillardan biri jestdir. A.Tolstoy ta'biri bilan aytganda: "Dialog san'ati jestni ko'rishdan boshlanadi"¹⁷. Personaj jesti esa uning individual xususiyatlaridan biri bo'lib, muallif nutqi orqali namoyon bo'ladi. Omon Muxtorning "Buyuk farrosh" romanida rafiqasi Shahriyaga murojaatida ham jestning ayrim jihatlarini ko'rishimiz mumkin.

Avvalida aravada ketayotgandek edim.

So'ng, oftob namuncha qizdirmasa, deb o'ylab, ko'zlarim achishdi.

U yon, bu yonga ag'darildim-u, uyg'onib ketdim.

Diqqat qilsam, shifta chiroq yonayotgan ekan.

Karavotda sen toqatsizlanib-to'lg'onib yotibsan.

Pichirlab nimadir deyishga urindingmi yoki holatingni o'zim payqadimmi, harqalay o'rnimdan sapchib turib, bo'lmadan yo'lakka otildim. Shoshib dastakni ko'tardim.

Qo'lim titraganidan, raqam terolmayman. (134-bet)

Bundan tashqari Omon Muxtor o'z ichki tuyg'ularini hayoldan o'tkazish jarayonida uning ruhiy holatini ochishga xizmat qiladigani jest va mimikaning o'ziga xos tarzda qo'llanganining guvohi bo'lamiz:

"Men umrimda ko'p og'riqli shovqinlarni eshitdim. Men umrimda ko'p noxush manzaralarni ko'rdim. Lekin meni Alisher g'aflatdan uyg'otdi.

Meni qulog'imga kaftimni tutib, dunyoni eshitishga, ko'zlarimni yirib, dunyoni ko'rishga Alisher o'rgatdi"(192-bet).

Keyingi yillar o'zbek adabiyotida asar ta'sirchanligini oshiradigan jest va mimikalarning inson xatti -harakatlari, ayniqsa, uning ruhiy holatini ochishdagi xizmat doirasi kengayib borayotganligi ko'zga tashlanmoqda. Asarda dialogni tashkil etishga, uning tuzilishiga har bir adib o'zicha, asarning umumiy g'oyaviy konsepsiyasidan, xarakter yo'nalishidan kelib chiqib yondashmoqda. Bu jihatdan Omon Muxtor, O'tkir Hoshimov, Murod Muhammad Do'st, Xurshid

¹⁷ТолстойА. О литературе и искусстве. М. 1984.— С. 311- 312.

Do'stmuhammad, Tog'ay Murodlar romanlaridagi dialoglarning o'ziga xos uslubiy ko'rinishlari e'tiborni tortadi.

Yozuvchi Omon Muxtor ixcham dialoglar orasida berilgan izohlarda qahramon xarakterining muhim belgilarini, ichki olamini ochishga yordam beradigan jest va mimikani ifodalovchi so'z va iboralardan unumli foydalanadi. Bunday remarkalar (izohlar) aslida o'sha hikoyachi yoki asarda qatnashayotgan personajga tegishli bo'ladi. Biroq, sinchiklab qaralsa, ularda muallifning o'rni aniq sezilib turadi.

Ko'rinadiki, jest va mimikaga oid so'zlar badiiy nutqning tashqi manerasi, personajlar xatti-harakati, muomalasi, o'zini tuta bilishi yoki aksincha, jazavaga berilishi, xullas, xarakteriga xos individual belgilarini ko'rsatishda muhim ahamiyatga ega. Ularning bunday funksiyalari mazmunni tubdan boyitadi, unga qo'shimch ma'no bag'ishlaydi. Bunday tasviriy vositalar batavsil bo'lmasa-da, asarni ma'lum darajada to'ldirib, yaxlit tasviriy-axborot majmuini vujudga keltirishda yordam beradi.

2.2. Asardagi Navoiy shaxsiga oid masalalarning shoir g'azallari yordamida yoritilishi.

Ijodkor shaxsi va biografik xususiyatlar uning adabiy mahsuloti bo'lmish asarlarida u yoki bu darajada o'z aksini topadi. Ayniqsa, lirik janrlarda shoirning dunyoqarashi, orzu – intilishi, g'oyaviy yo'nalishlari, qolaversa, insoniy fazilatlarining izlarini yaqqol his qilish mumkin. She'rlar ijodkorning ichki kechinmalari, turli ko'rinishdagi kayfiyatlarning natijasi, mahsulidir.

She'r oldindan rejalashtirilib, obdon pishitilib, puxta o'ylab qog'ozga tushirilmaydi. Lirikaga mansub asar ijodkor qalbi va shuuriga ta'sir ko'rsatuvchi biror voqea-hodisaning turtkisi tufayli yoki shoirni qiynayotgan biror hayotiy muammo asosida vujudga keladi¹⁸.

Omon Muxtor ham "Navoiy va rassom Abulxayr " romanida Navoiy

¹⁸Jo'rayev H. Lirik qahramon va muallif shaxsiyati. T. 2008.

timsolini yaratishda, uning shaxsiga oid masalalarni yoritishda Navoiy g'azallariga murojaat qiladi.

Lirik janrlar o'zining ixchamligi, lahzalik kechinma hamda tuyg'uning badiiy ifodasi bo'lganligi uchun ham ortiqcha tafsilotlarni, keng epik bayonni o'ziga sig'dirmaydi. Xondamir Navoiy ijodiga nisbatan ta'rif berayotganda "zo'rlik yo'q" ligini aytar ekan, ana shuni nazarda tutganligi ehtimol.

Shoir ijodining qimmatini uning sof shaxsiy kechinmalari, tasviri bilan emas, balki zamonasining ijtimoiy jihatdan muhim hodisalarini o'zining shaxsiy tarjimai holi faktiga aylantira olishi bilan belgilanadi.

Omon Muxtor Abulxayr shaxsi orqali o'z hayot tajribasi, shaxsiy dunyoqarashi, o'ylari, tasvirlarini berishga intiladi.

Lirikada fikr va his umuminsoniy ekanligini ta'kidlab, adabiyotshunos Izzat Sulton "lirik qahramon – lirik asarda kechinmalari tasvirlanayotgan kishi, shoirning ustun jihatlarini, ya'ni umumjamiyat uchun qimmatli his va fikrlarini tashuvchi shaxsdir, - degan xulosaga keladi, - u shoir shaxsi bilan estetik idealining quymasidir"¹⁹.

Alisher Navoiyning ilk lirik merosini tadqiq etgan navoiyshunos Yo. Is'hoqov ikki muhim xususiyat haqida to'xtalib, quyidagi xulosaga keladi: "... ishqiy g'azallarining bir qismini shoir an'ana izidan borib yozgan. Bunday she'rlar abstrakt xarakterdagi she'rlar bo'lib o'zining shablon ifoda vositalari hamda uslubi bilan ajralib turadi. Ammo ko'pchilik ishqiy g'azallar hayotiy xarakterda bo'lib, shoirning real his-tuyg'ularini ifodalagan. Bunday she'rlarda muallif shaxsiyati hammadan ko'ra ko'proq aks etib turadi"²⁰.

Omon Muxtor Navoiy shaxsini yoritar ekan, uning yoshlikdan bir qizni sevgani aniqligini, uning ismi noma'lumligini, rivoyat, ertaklarda uni Guli deyishlarini aytib, Gulyuz, Gulnoz, Gulsum, Gulruh, Gulbegim, Gulbadan bo'lishi ham mumkinligiga, uning ismida "Gul" bo'lganligiga ishora qiladi va Navoiy

¹⁹Sulton I. Adabiyot nazariyasi.T., 1980. –B.234-235.

²⁰Is'hoqov Yo.Navoiyning ilk lirikasi.RKD. –B.105.

g'azallari orqali tushuntirishga harakat qiladi.

“Bog’ mendek sorg’orib ...

Suv g’akim tushmish qizorg’on barglar...

Navoiy g’azallarida bog’ ko’p. Bog’bon ko’p. Albatta boshqa shoirlarda ham bor. Sharq bu! Lekin Navoiyda alohida ahamiyat kasb etadi. U “xazon sipohi” deganda ham o’z qismatidan kelib chiqadi.

Keyin gul, gul ...

Go’yiyo, mundoq bo’lur

bir Guldin ayrilg’ong’a hol...

Yana bunday:

Yuzni gullardin bezabmu, bizni qurbon aylading,

Yo yuzungga tegdi qonlar, bizni qurbon aylagach...”(10-bet)

satlari orqali ham biz yorga murojaatini ko’ramiz.

O.Muxtor Navoiyning bolalik davri ya’ni to’rt-besh yoshlar arafasidagi holatini quyidagi satrlarda ko’rsatishga urinadi:

“Menga ul holatda tab’i bul-havas

“Mantiq ut-tayr”aylab erdi multamas...

O’ylakim, eldin uzildi ulfatim,

Ul kitob erdi anisi xilvatim.

Xalq rasmiy so’zlaridin qilu qol

O’tsa, ta’bimg’a yetar erdi malol...

Onlag’ach atfol aylab sho’ri shayn,

Istimo etdi bu so’zni volidayn...

Yoshurib daftarni, ma’dum etdilar

Shug’lidin ko’nglumni mahrum etdilar...

Lek chun yodimda erdi ul kalom,

Yoshurin takror etar edim mudom.

Andin o’zga so’zga maylim oz edi,

Qush tili birla ko’ngul hamroz erdi”(51-bet)

Bu satrlar orqali Navoiyning bolalikdan zehni o'tkir, ziyrak ekanligini hamda turkiy, arabiy, forsiy – uch tilda yuzlab satr she'rlarni bir kun - yarim kunda yodlab ketaverishi, shu yoshda kattalar bilan she'r bobida fikr almasha olishi singari sifatlarini O.Muxtor ochib berishga intiladi. Shunday go'zal satrlarni tanlash orqali o'z g'oyaviy maqsadini o'quvchiga yetkazib beradi.

Navoiy adabiy merosining zukko tadqiqotchilaridan biri akademik A.Rustamov Navoiy dahosining jahonshumul yuksaklikka ko'targan shoirlik iste'dodidan tashqari yana ba'zi omillar sabab bo'lganligini izohlar ekan, ana shu eng muhim omillardan biri to'g'ri falsafiy e'tiqodga ega bo'lishga hamda ana shu e'tiqodga amal qilishga bog'liq, deya hisoblaydi²¹.

Omon Muxtor "Ishq ahli" romanining to'rtinchi daftarida Navoiy mansub bo'lgan e'tiqod masalalariga alohida e'tibor qaratadi. Bu haqida S.Sodiq ham alohida ta'kidlaydi. Jumladan, "Ishq ahli" asarining o'ziga xos janr xususiyatlaridan biri uning tasavvufiy mushohadalarga boyligida ko'rinadi²².

"Tasavvufga ko'ra, ming yillarki, e'tiqodda uchragan katta bo'linish: Zuhd ahli va ishq ahli mavjud.

Ahli zuhd ichra Navoiy topmadi maqsadg'a yo'l...

Alisherning maqsad yo'li boshqa. U: Meni ishqdin man' etar soda shayx, - deganida o'zining ishq ahlidan ekanligini aytmqchi bo'ladi.

Zuhd ahli (zohidlar) yangicha tushunchada aytsak, e'tiqodda rasmiyatga ko'proq rioya qilishadi. Ular uchun din ba'zan shaklga aylanadi: hamma bir o'lchov, bir qolipda yashashni istashadi. O'zni (jismni) hayotdagi chang-g'uborlardan "toza" tutishni ular ruhni kamol toptirish deb tushunishadi.

Ishq ahli (oshiqlar) u dunyo bahonasida bu dunyodan yuz burgan (porsolik), aslida hukmronlikni qo'lga kiritishga uringan (riyo) zuhd ahlining qaysar betoqat, ba'zan shafqatsiz xatti- harakatlaridan norozilik sezishadi. E'tiqodni himoya qilish niqobi ostida odamga, odamiylikka qarshi kurashishni (jaholatni) jinoyat

²¹Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. T. 1974. –B. 194.

²²Sanjar Sodiq. Ijodning o'ttiz lahza. T., 2005. –B. 180.

deb bilishadi. Oshiqqlar uchun e'tiqod – Ishq, birinchi o'rinda ishq turadi! Ular shaxs erkinligi, hayotsevarlik tarafdori. Ularga Ollohning o'zidan bo'lak narsa kerak emas. Mana shu Ollohning o'ziga yaqinlikni ular ruhning kamolotga yetgani, deb tushunishadi"²³.

Umuman, birgina din –ikki dunyoqarash asosida ham Ollohning buyukligiga iqror yotadi. Alisher uchun (hayot va ijodda) dunyoqarash nihoyatda muhim! U tanlagan ustodlaru topgan do'stlar barchasi Ishq ahlidan! Hofiz deysizmi? Anvormi? Uning piri Jomiymi? U suyangan Lutfiymi?! Alisher ba'zi bir zotlar haqida: *"Valiy kishi erdi!", "Darveshsifat erdi!"* deganida ham Ishq ahlidan ekanligini ko'zda tutadi. Yana, Bahouddin Naqshbandga nazm va nasrda murojaatlar Ishq ahli falsafasi bilan bog'liq²⁴.

Darhaqiqat, Alisher Navoiyning zamondoshlari xotiralariga asoslanadigan bo'lsak, shoir asarlariga sinchiklab nazar solsak, Navoiy o'z davrining til va dil birligiga erisha olgan ibratli siymosi bo'lganligiga shubhalanmasak ham bo'ladi.

Omon Muxtor Navoiyni o'ziga xos shaklda tasvirlar ekan, unga tasavvufiy nuqtai nazardan yondashib, Navoiy shaxsiga, e'tiqodiga xos jihatlarni ochishga intiladi. Bunda muallif Navoiyning e'tiqod darajasini, maslagini ochib beruvchi zohidlar va oshiqqlar o'rtasidagi o'zaro ziddiyatlarni aniqlashga harakat qiladi.

Alisher: "Agar xalqqa ozgina nafing tegsa, bilki, o'zingga bu naf ko'prak bo'lib qaytadi!", yana: "Odam Xalq bilan birga Inson bo'la oladi!" degan BUYUK E'TIQODni o'zi uchun kashf etadi.(69-bet)

Omon Muxtor bu borada Navoiy g'azallaridagi murojaatlar orqali uni xalqqa yaqinlashishga harakat qilganligini ko'rsatadi: ey soqiy, ey do'stlar, ey rafiq, ey azizim.

Omon Muxtor badiiy zamindan hayotiy mantiq izlab Navoiy yaratgan ruboiy she'riyat bag'ridan ko'ngil timsolini topadi. Bu Shaxsning shikasta ruhi,

²³ Muxtor O. Navoiy va rassom Abulxayr. T., 2006.

²⁴ O'sha asar. –B. 73.

murakkab kayfiyati-yu fuzun dardlarini mutasavvuf valiylar e'tiqodi bilan bog'lab idrok etadi. Misralar talqinidan go'zal ma'nolar topadi. Shuning uchun ham Navoiy kitobxonning ko'z o'ngida go'zal hayoloti-yu, istak – mayllari, shirin xotiroti bilan namoyon bo'ladi.

Sevadi, seviladi, hijron azoblarida o'rtanadi. Asarlarida ilgari surilgan fikr-qarashlarni yagona Yor (Ishq) dardi atrofida jipslashtira oladi.

“Alisherning kimlargadir ko'ngli shunchaki ketganmi?!

U kimlarnidir shunchaki yoqtirganmi?!”(89-bet) deya savol berib, Navoiy misralari orqali javob topadi.

Oshiq o'ldum, bilmadim, yor o'zgalarga yor emish,

Olloh-Olloh! Ishq aro mundoq balolar bor emish,

Yoki:

Ey Navoiy, xo'blarni – ko'rma osonlig' bilan,

Kim, birovkim, soldi ko'z – uzmak ko'ngul dushvor emish...

Yuqoridagi misralardan kelib chiqib, yozuvchi Alisherning yuragidagi muhabbat ehtiyojidan sachragan uchqunlarni hamda Alisher buyuk shoir ekanligidan shu uchqunlarni ham katta bir muhabbatga aylantira olganligini gavdalantirishga harakat qiladi va bunga erishadi.

Bog', gul, bulbul, may, bulut va oftob, iliq va sovuq shamollar, ezgin yomg'irlar – Yor borligidan bor. Bo'lmasa bularning keragi yo'q! Yor tegrasida bular – bir manzara ! Alisher Yorga murojaat qilish bahonasida, manzarani chizadi.

Garchand Sharqona odob yuzasidan sevgilisining nomini pinhon tutsa-da, muhabbat tug'yonlarini oshkor etadi. Yozuvchining nazdida, Navoiy tasavvuridagi yornigina emas, balki ko'ngil armonlari va hayotiy holatlarni ham tasvirga olgan:

Itimosim buldururkim, borch a eldin yoshurun,

Qilg'asen, miskin Navoiy dardin izhor, ey ko'ngul.

Muallif Navoiy timsolini yaratar ekan, Navoiyning g'azallari jamlangan

“Xazoyin ul- maoniy ” ga qayta-qayta murojaat etganini ko’ramiz.

Alisher asarlarida, ayniqsa, g’azallarda qaysi yor tasvirlangan?! Ohang, ruh har xil. Eng avvalo, u Ollohnı ulug’laydi. Ilohiyat haqidagi gapda bir oz jon bor. Ollohnı sevish Ishq ahli ijodida martaba sanaladi. So’zga ramziy bir ma’nolar beriladi.

Yor aksin mayda ko’r, deb jomdin chiqdi sado (Yor – Olloh, Jom - olam, Mayhayot).

Navoiy ijodiyotida ishq – go’zallik, ruh, axloq, erk, abadiyat, falsafa kabi tushunchalarnı qamrab olgandır. Navoiy ishq nomi bilan insonni ulug’lovchi ilohiy sirlarnı tadqiq etadi, buyuk shoir tasviridagi haqiqiy ishq kechinmalari Inson va Xudo orasidagi ruhiy yaqinlik, birlik tuyg’ularini ifodalaydi²⁵, deb yozgan edi adabiyotshunos olimlarimizdan Ibrohim Haqqul. Yozuvchi Omon Muxtor ham Navoiy g’azallaridan go’zal ma’nolar topishga harakat qiladi va maqsadiga erishadi.

Xulosa shuki, san’atkor uslubi masalalarini, lirik bayon va ifoda tarzidagi o’ziga xoslikni, mahorat qirralarini, an’anaviylikka munosabatini o’rganishda uning shaxsiyatiga oid chizgilarnı biografik xususiyatlarini nazarda tutish ham kutilgan samaralarnı berishi mumkin. Bunda ijodkorning davr va muhitga munosabatini, dunyoqarashini, istedodi, ijodiy metodi singari omillar bilan bir qatorda uning individual xususiyatlari, shaxs va ijodkor sifatidagi tadrijiyligi, mavsumiy va yosh xususiyatlari ham inobatga olinmog’i kerak bo’ladi. Bu esa shoir ijodiy merosining yashovchanlik sirlarini tadqiq etishda , mahorat qirralarini belgilashda, ta’sirchanlik omillarini ilg’ay bilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

²⁵ Ibrohim Haqqul. Tasavvuf va she’riyat. T., 1991. –B 86.

2.3. Navoiy obrazining rassom Abulxayr(Omon Muxtor) tasavvuridagi ifodasi.

Omon Muxtor Navoiyni yangi qiyofada tasvirlar ekan, rassom Abulxayr orqali o'z dunyoqarashi va tasavvuridagi ifodalarni o'quvchiga yetkazishga harakat qiladi. Bunda Navoiyning insoniy sifatlariga alohida e'tibor qaratadi. Alisher Navoiy o'zining adabiyotimizga qo'shgan hissi va ulkan ijodi bilan hammaga birdek ta'sir o'tkazgan. Navoiyning hali ochilmagan qirralari, o'rganilmagan jihatlari juda ko'plab topiladi. Muallif aytgandek:

“U – bir Osmon.

U – bir Ummon.

Qamrash qiyin!

Dastlabki taassurot shunday.

Hali hech kim BU OSMON qa'riga ko'tarilmagan!

Hali hech kim BU UMMON tubini ko'rmagan!

Biz ilk qarashda, Alisherning hayotini kaftdagidek ko'rib turibmiz.

Biroq uning butun hayoti – sir.

Biz u haqda oddiy bir narsalarni bilmaymiz!

Navoiyning asarlarini ham! Nimaiki yozgan bo'lsa, ko'zdan kechirganmiz.

Biroq uning yozgani – jumboq.

Chaqishga “tish” kerak!”(8-bet).

Omon Muxtor Navoiy yashagan davrdagi hamda undan keyingi davrlardagi rassomlar ijodiga nazar tashlagan holda uning ruhiyati tasviriga e'tibor qaratar ekan, bulardan uning ko'ngli to'lmaydi. Alisher ham hayotda hamma inson singari ba'zan ozor chekishi, ba'zan hayajonlanishi va barcha insonga xos sifatlar unda ham mavjud bo'lganligini tasvirlash orqali o'quvchini chuqur mulohaza yuritishga chaqiradi.

“O'z davrida ham, keyin ham rassomlar Alisherni negadir o'ta muloyim, shikasta- miskin qiyofada tasvirlashgan. Ziyoli kishi, deb shunday rang-bo'yoq

berishganmikin? Bu tasvirlarda ichki bir g'urur, shiddat yo'q... To'rt mijozga qaralsa, Alisher serjahl (badjahl, qiziqqon,asabiy) ham, sovuqqon (beparvo,bedard) ham, xushchaqchaq (ko'tarinki,yengil hayot kishisi) ham emas, xafaqon (o'z alami bilan yashaydigan, har narsani ko'ngliga oladigan odam) deyishibdi! U ba'zan ozor chekishi, ba'zan hayajon bilan, titrab gapirishi mumkin. Shuning barobarida,uning xatti-harakatida ehtiros ko'pmi, mulohaza – ajratolmaysiz. Va hamma balo shundaki, to'rt ilmiy mijozga Alisher “sig'maydi”.(45-bet).

Muallif Alisherning buyukligini tasvirlash jarayonida Husayn va Alisher o'rtasidagi munosabatlarga e'tibor qaratadi. Insonning holatidagi ziddiyatlar vaqti kelib uning buyukligini belgilaydi. Alisher o'zi tanlagan yo'ldan hech qachon qaytmaydi. Alisherning o'zi ustidan o'zining hukmronlik o'rnatish, shaxsiy hayotda ham, mamlakat hayotida ham bir bir chiziqdan og'may harakatlanishiga sabab bo'ladi. Buni muallif o'z hayolidagi chizgilar orqali quyidagicha tasvirlaydi: “*Shaxs – katta bo'lgan sayin, bir xil holatdan ko'p holatlarga qarab boraveradi. Goh tashqi, goh ichki, goho ichki va tashqi holat qarama-qarshiligi (ziddiyat) insonning Buyukligini belgilaydi. Alisherning “muloyim”ligi (“xafaqonligi”) yashirin tug'yonlar (boy, rangin holat) oldida tortilib turgan pardadir. Menga rassomlar hali “parda orqasiga” o'tmagandek tuyuladi.*

Qisqasi: Husayn – o'z unvon-darajasi, soxt-sumbati, yurish-turishi bilan haybatli. Vajohatli. Biroq Alisher – undan kuchli! Husayn buyurgan xizmatni bajaradi Alisher. Uning hurmatini joyiga qo'yadi. Unga mehr-sadoqat ko'rsatadi. Shu bilan birga, o'zi chizgan chiziqdan o'g'may, to'g'riga qarab ketaveradi. Shaxsiy hayotda ham, mamlakat hayotida ham shunday. Bu “qaysarlik”ni hech kim sindirolmaydi (46-bet).

Omon Muxtor Alisher Navoiyni o'ziga xos tarzda tasvirlar ekan, uning badiiy olami nihoyatda keng ekanligiga e'tibor qaratadi. Temuriylar saltanatining madaniy hayotiga juda muhim ta'sirini o'tkazgan inson Navoiy bo'lib, u yangi siyosiy va iqtisodiy sharoitni yaratishda katta yordam beradi. Oddiy fuqaro

Navoiy muhtojlarga xayru ehson qiluvchilarning mashhuri, shoir va olim edi.

Hamma vaqt xalq dardi va g'ami bilan yashaydigan Navoiy timsoli rassom Abulxayr (Omon Muxtor) tasavvurida quyidagicha ochib berilgan:

“Shoirlik, arboblikdan ko’proq Alisherning butun hayotida, aslida kelib chiqishi oddiy fuqaro (balki ziyoli fuqaro) ekanligi sezilib turadi. Hatto u yurgan yo’lida buni qandaydir isbotlashga urinadi. Ko’chadagi kosiblarmi, dehqonlarmi, to’xtab, gaplashib ularni (yalangoyoqlarni) saroyga boshlab kiraveradi. Yoki ular kirib qolishgan bo’lsa, erinmay hol so’raydi. Biron tashvishlari borligini bilsa, darhol yordam berishga harakat qiladi. Ayniqsa, arkoni davlatdan Husayngacha hammani “bezovta” qilib, xalq (fuqaro) dardini tinglashga chaqiradi. Bu xislat uni aziz avliyolarga yaqinlashtiradi”. (45-46-betlar).

Muallif yuqoridagi fikrlarini davom ettirib, Navoiyni ham ruhan, ham jismonan kuchli shaxs bo’lganligini, aniq maqsad yo’lida tinmay izlanganligini hamda irodasi hamisha mustahkamligini alohida misollar yordamida berib o’tadi. Yolg’izlik Navoiyda ongli ravishda, Abulxayrda esa tasodif ekanligini quyidagicha tahlil etadi:

“Navoiy Kuchli Inson. Har jihatdan Kuchli. Jisman! Davlat ishida yurib, har qadamda xalqning hojatini chiqarib, yana tun-kun o’zi uchun mehnat qilish qobiliyatiga – uni bilganlar doim ajablanishgan. Ruhan! Aniq maqsad bilan o’ylangan, o’lchovli tartibda yashagan bunday chinakam ma’noda – irodali shaxslar dunyoda kam topiladi. Ehtirosi shu qadar shiddatliki!

Qisqasi, u o’z hayotini (dunyo ko’rkiga mahliyo bo’lishdan saqlanibmi, nafsini tiyibmi?!) ongli ravishda YOLG’IZLIK va HIJRON “ilkida” o’tkazadi!” (88-bet).

Shu o’rinda muallif Husayn obraziga to’talib, Husayn Navoiyni qanday ulug’lashini, Alisherga munosabati qanday bo’lganligini ko’rsatishga urinadi. Bu o’rinda Navoiynining turkiy tilning asoschisi ekanligini Husayn tilidan berilgan quyidagi ta’rif orqali o’quvchiga yetkazib beradi:

“Mir Alisher aslahallohu shonahukim, taxallusi Navoiyg’a (Navoiy deb)

mashhurdurur va ash'orida bu taxallusi mastur (durur) – turk tilining (turkiy tillarning) o'lg'on jasadig'a masih (Iyso) anfosi (nafasi) bila ruh kiyurdi. Va ul ruh(ni) topqonlarg'a turkiy oyin toru pudidin to'qulg'on xulla va harir kiydurdi ”.

Husayn Alisherni shunday ulug'laydi.

U Alisher bilan faxrlanadi. O'zi yozgan “risolada” Alisherga zamondosh bo'lganini baxt deb bilishini ta'kidlaydi.

(Bunga “yalpayib, suyunish” ortiqcha.

Alisher – Husayn davrida yashagan shoir emas, Husayn – Alisher davrida yashagan shohdir!) (106-bet)

Navoiyning butun umri izlanish va ijodda o'tganligi hammamizga ma'lum. U o'z hayoti davomida butun yurti, xalqni tinch va osoyishta bo'lishini istaydi. Bu borada amaldagi shoh Husaynga har tomonlama ko'maklashadi. Davlat boshqaruvida, yurt osoyishtaligida uning o'rnini sezilib turadi. U boshqaruvda bo'layotgan har qanday holatga yaxshimi yomonmi o'z munosabatini bildirganligi yozuvchi tasavvurida quyidagicha aks etadi:

“Alisher bir necha janglarda ishtirok etadi. Lekin u hech qachon jangga kirgan emas. Husaynning YONIDAGI KISHI bo'lgan, xolos.

Urush emas, Alisher – TINCHLIK elchisi!

Qayerda g'ayrlikmi-isyon – NOTINCHLIK ko'rinsa, Husayn Alisherni yuboradi. Alisher (bizga ayon) shahzodalar, beklar bilan ham, dehqonlar, hunarmandlar bilan ham “gaplasha” olgan. Husaynning so'ziga kirmagan odamlar Alisherning SO'Zini quloq qoqmay eshitgan. (116-bet)

HAYOTGA ARALASHISH

yoki

HAYOTGA ARALASHMASLIK...

Alisherning butun borlig'i va butun ijodi HAYOTGA ARALASHISHning buyuk timsolidir!

U shohmi, gadomi – biron payt o'ziga yuzlashgan biron kishining ahvoli

qandayligiga loqayd qaramagan. O'zi shohid biron holat, biron voqeaga munosabat bildirmay qolmagan.

Uning zohidlarga ters yurib, OSHIQLARdan bo'lganiga sabab ham shu!(124-bet).

Omon Muxtor Navoiyni ulug' mutafakkir darajasiga ko'tarar ekan, uning shu ulug'likka erishishida olamni anglashga intilishi hamda hayotning barcha sohasida izlanganligini alohida sifat qilib ko'rsatadi.

“O'sha davrdagi o'rganish mumkin fan, soha yo'qki, Alisher qiziqmagan bo'lsa! Mana, shu OLAMNI ANGLASHGA intilish uni ULUG' MUTAFAKKIR darajasiga ko'taradi”.(124-bet).

Quyidagi satrlar orqali Navoiyning butun tarix va insoniyat oldidagi xizmati haqida to'xtalib, bir maqsad sari intilgan Navoiy ogohlik da'vatkori ekanligini anglatmoqchi bo'ladi:

“U faqat Temur nasli emas, umuman yer yuzida HAYOT INQIROZga qarab ketmasligini istaydi. Uning tarixdagi xizmati OGOHLIKKA da'vatdir.

Uning hayotida butun ziddiyatlar – buyuk BIR MAQSADGA INTILISH jarayonini aks ettiradi”.

Omon Muxtorni ko'p qiynagan va oxir oqibatda javob topgan o'rinlarga to'xtalamiz. Izlanishlari samara bergan quyidagi sifatlar orqali biz rassom Abulxayr(Omon Muxtor)ning tasavvuridagi Navoiy timsolini ko'ramiz:

“Alisherni ko'p qiynagan, axiyri “olib ketgan” kasallik ma'lum: Ichki BIR QUDRAT jismni “yorib” chiqmoqchi! Men uni shunday tasvirlayman: Tashqi – horg'inlik, Ichki – toqatsizlik.

Horg'in yuz-ko'zida bitmas-tuganmas kuch!”(125-bet).

Omon Muxtor “Navoiy va rassom Abulxayr” asari orqali Navoiyning yangi qirralarini ochishga harakat qiladi. Asarni tahlil qilish jarayonida bir-biriga also o'xshamagan, takrorlanmas Navoiyning yetmishdan ortiq sifatlari orqali uning timsolini yoritishga kirishgan va o'z g'oyaviy maqsadini amalga oshira olgan.

UMUMIY XULOSA

O'zbek adabiyotida Navoiy obrazining yaratilishi va Navoiy obrazining yaratishda adiblarning o'ziga xos uslubi va mahorati haqida to'xtalib o'tilgan . Navoiyning hayot yo'lini yoritish masalasiga alohida hissa qo'shgan hamda Navoiy siymosini yoritishga ko'maklashgan, o'zbek adabiyotida birinchilardan bo'lib Alisher Navoiyning tashqi ko'rinishi orqali uning psixologiyasi, xarakteri, ichki dunyosini ko'rsatishga erishgan adiblardan biri Oybek hisoblanadi. O'zining "Navoiy" romanida Navoiyning buyuk siymosi hamda u yashagan davr hayotini mukammal tasvirlar orqali yoritib beradi. Navoiyning bizga, davrimizga yaqin bo'lgan, muammolarimizga javob bera oladigan obrazini yaratdi.

Adabiyotshunos olim Izzat Sulton esa "Navoiyning qalb daftari" asari orqali Navoiy obrazini yaratishga erishdi. Zahmatkash olim ulug' shoirning barcha asarlari hamda Navoiy zamondoshlari – tarixchi, adabiyotchi olimlar asarlari asosida ulug' o'zbek shoirining tarjimai holini, ko'pgina asarlarining yaratilish tarixini yaratdi.

Jahon adabiyotida Navoiy siymosiga qiziqish juda kuchli hisoblanadi. Lidiya Bat o'zining "Hayot bo'stoni" nomli asarida Navoiyning bolalikdan umrining oxirigacha bo'lgan davrini yoritib, oddiy, tushunarli tarzda o'quvchiga yetkazishga harakat qiladi.

Taniqli yozuvchi Omon Muxtor millatimiz faxri, ulug' mutafakkir Alisher Navoiy hayoti va ijodiga yangicha yondashib, ajoyib dilogiya yaratganidan xabarimiz bor. Adib bu asari bilan ulug' siymoning mustabid tuzum taqiqlari bois qalamga olinmagan jihatlarini ko'rsatishga harakat qilgan. Kitobning yana bir o'ziga xosligi ulkan voqealarni o'z bag'riga sig'dira olganidir. Bu haqda muallifning o'zi shunday deydi: "Tabiiyki, oldin adabiyot, keyin adabiyot nazariyasi paydo bo'lgan. Gyote aytadi-ku: "Nazariya quruqdir, do'stim, ammo yashar hayot daraxti". Har bir sohaning o'z analiz va sintez yo'llari bo'lganidek, adabiyotda ham bu azaldan mavjud. Mustaqillik haqida, milliy g'oya haqida hali juda ko'plab asarlar yoziladi, bizdan ko'ra yaxshiroq yozadiganlar paydo bo'ladi.

Bunga men qattiq ishonaman. Albatta, birdan sovuq joydan issiq joyga o'tib qolsangiz bir muddat aqlan va jismonan notabiiy holatni boshdan kechirasiz.

Kecha sho'ro g'oyalarini bayroq qilib asar yozganlar mustaqillikka erishgach, dilida qolib ketganlarini yozishdi. O'tmish alamlarini aytib ko'nglini bo'shatib olishdi. Ammo endi nima qilmog'imiz kerak, qaysi janrlarda ko'p va xo'p yozish, milliy g'oyani aynan qaysi usullarda rivojlantirish kerakligi haqida kamroq lutf bo'ldi. Xayriyatki, Prezidentimizning bu borada bizga dasturilamal bo'ladigan, nazariy jihatdan puxta bir qator asarlari e'lon qilindiki, bu tafakkurimizdagi evrilishlarga keng yo'l ochdi".

"Navoiy va rassom Abulxayr" romani shu evrilishlar natijasi desak xato bo'lmaydi. Bu asardan ikki roman "Ishq ahli" va "Buyuk farrosh" joy olgan. Bu romanlar haqida adabiyotshunoslar, jamoatchilik o'z fikrini aytdi. Tortishuvlar va bahslar ham bo'ldi. Navoiy haqida adabiyotimizda ko'plab ilmiy va badiiy asarlar bitilgan, ammo bu yetarli emas. Kecha Navoiy haqida aytish mumkin bo'lmagan gaplarni bugun aytsa bo'ladi. Har bir avlod, albatta, o'z qarashlarini ifoda etish huquqiga ega. Omon Muxtor romanlarini shaklan qisqa, mazmunan uzunroq bo'lishini istadi va shunga harakat qildi. Bobomiz Alisher Navoiy salkam oltmish yil umr ko'rgan bo'lsa-da, ma'naviy jihatdan hamisha barhayotdir. "Tepalikdagi xaroba"da Lutfiyni tasvirlashda ham Navoiydan foydalangan. Navoiy obrazi yoshligidan yozuvchi ongida tinimsiz rivojlanib kelgan. Shuning uchun bu romanlarni bugungi zamon kishisining Navoiy haqidagi tasavvurlari desak ham bo'ladi.

"Ishq ahli"da rassom Abulxayr va Shahriya, Odil va Barno munosabatlari orqali bugungi zamon kishisining dunyoqarashi, saviyasi va manfaatlarini ifoda etish orqali besh asr orqaga nazar tashlash, Navoiy davrini tasavvur etish va bu haqda yozuvchining badiiy tafakkurini falsafiy ifoda qilib berishni maqsad qilgan edi. Omon Muxtor bu maqsadiga erishdi. Navoiy haqida go'yo hamma gap aytib bo'lingan, yangi gap aytish qiyindek tuyuladi. Ammo shuni unutmaslik lozimki, Navoiy — ummon, qancha o'rgansak, shuncha oz. Bilamizki, matematika miqdor,

oliy matematika esa sifat bilan ish ko‘radi. Bu ummonda qancha tomchi suv bor degan savolga javob izlagandan ko‘ra, avvalo, miqdorni qanday qilib o‘lchash usulini topish insoniyatni ko‘proq qiziqtirganidek, muallif Navoiy dahosini o‘zicha kashf etish usulini izlaydi.

“Buyuk farrosh”da esa buyuk dahoning oddiy, siz-u bizdek inson bo‘lgani, buni rassom Abulxayrning tushunchasi orqali sifatlashga harakat qilgan. Navoiy o‘zini buyuk deb emas, bor-yo‘g‘i “jorubkash” deb bilgan. G‘oyaviy pirlaridan bo‘lgan Abu Ismoil Abulxayr ibn Muhammad (Ansariy al-Hiroviy) maqbarasiga kelib, uzlatga chekinish istagini Husayn Boyqaroga bildirgan. Shoh bunga rozi bo‘lmagan. Navoiy Ansariy qabrini supurib-sidirib, jorubkashlik farroshlik qilib, qolgan umrini uzlatda o‘tkazmoqchi bo‘ladi. Ammo ziddiyatlar falsafasi bunga yo‘l bermaydi. Albatta, bu qarashlarimning nihoya topganini bildirmaydi. Har qanday sahna asarini tomosha qilayotgan odam uning yaratuvchisi haqida emas, ko‘proq sahnadagi voqealar rivojiga diqqatini jalb qiladi va sahna yopilgachgina uning muallifi haqida o‘ylay boshlaydi. Har qanday asar bu yozuvchi tafakkuridan tashqaridagi hodisa emas. Fan tajribaga suyanadi, agar voqelik tajribada isbotini topmasa fan buni tan olmaydi. San’at esa hayratdan boshlanib hayratda tugaydi, deb o‘ylashi mumkin ba’zilar.

To‘g‘ri, hayratdan fikr-tuyg‘u, fikrdan falsafa, falsafadan san’at, san’atdan esa yana hayrat tug‘iladi. Bu abadiy jarayondir. Bu asarlarida matnga e’tiborni ko‘proq qaratgani ko‘ramiz. Buningning sababi ham shunda. Shu usul bilangina yozuvchi o‘zidagini asarlariga singdirishi mumkin edi. Navoiy haqida umumxalq e’tirof etgan tushunchalar bor. Bu tushunchalarni asarda qayta-qayta berish takrorlashdek bo‘lardi. Shuning uchun ko‘proq ishoralardan foydalanadi. Bu ham bir ijodiy usul hisoblanadi.

Xarakter so‘zi yunonchada “bo‘rtiq chiziq” degan ma’noni bildirar ekan. “Ishq ahli”ni o‘qir ekanmiz, mana shu “bo‘rtiq chiziq” bo‘rttirilmaydi. Komil inson tushunchasi ham o‘zgacharoq tasvirlanadi. Inson xaraktersiz bo‘lmaydi. Ammo so‘fiylikda, komil inson tushunchasida yuqorida aytganimizdek xarakter,

vijdon tushunchalari, shaxs masalalari ko‘rilmaydi. Komil inson — sevguvchidir, sevguvchi o‘z sevgilisidan nuqson izlamasligi tabiiy. Navoiy “Lison ut-tayr” asariga nega murojaat etgan, degan savol yozuvchini ham qiynagan.

“Lison ut-tayr”da Navoiy qushlar obrazi orqali kishilikning mangu savollariga javob izlagan. Attor “Mantiq ut-tayr”da ilohiy ma’rifat g‘oyalarini haq va haqiqat sirlarini kashf etishga ko‘proq e’tibor bergan bo‘lsa, Navoiy buni real hayotga yaqinlashtirib, uch yuz yil davomida paydo bo‘lgan yangi g‘oyalar bilan to‘ldirdi va o‘z asarini “Lison ut-tayr” deb atadi.

Omon Muxtorning “Navoiy va rassom Abulxayr” asarini struktural tahlil qilish orqali adabiyotimizda tortishuvlarga sabab bo‘lib kelayotgan remarka hamda dialog asosiga qurilgan asarlarning ta’sir doirasini kengaytirishga ko‘maklashuvchi, personajlar xatti-harakatlari orqali ularning ruhiy holatlarini ochib beruvchi jest va mimikalarning qo‘llanilishi misollar orqali yoritib berilgan.

Asarda o‘ziga xos tuzilish kasb etgan Navoiy g‘azallari orqali uning shaxsiga oid masalalar yoritib o‘tilgan. Bu bilan Navoiy g‘azallarini tahlil qilish emas, berilgan g‘azallar orqali Omon Muxtor qanday mazmun izlab topganligini tushunish va shular orqali Navoiy timsolini anglashdan iborat.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib xulosa qilganda, “Navoiy va rassom Abulxayr” romanida Alisher Navoiy hayoti, ijodi, munosabatlaridagi ziddiyatlar murakkabliklar atroflicha yoritib berilgan. Bu asar yaxlit olganda badiiy ilmiy yo‘nalishda yaratilgan ma’rifiy romandir. Undan talaba ham, adabiyot ilmi bilan shug‘illanuvchi mutaxassis ham, oddiy kitobxon ham naf olishi, Navoiyni tushunishi, ayni chog‘da o’sha murakkab tarixiy jarayondagi siyosiy-ijtimoiy, ma’naviy-axloqiy ziddiyatlarni chuqur anglab yetishga, eng muhimi Navoiyni inson sifatida anglashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. –B.74.
2. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – Toshkent: Sharq, 1998.
3. Abdurahmonov G'.Navoiy uslubi qirralari // Sharq mash'ali. 2001.№1-2.
4. Ibrohim Haqqul. Tasavvuf va she'riyat.T., 1991.
5. Jo'rayev H. Lirik qahramon va muallif shaxsiyati. Toshkent: Fan, 2008.
6. Komilov N. Tasavvuf. T., 1997.
7. Muxtor O. Navoiy va rassom Abulxayr. – Toshkent: Sharq, 2006.
8. Muxtor O. Odamlar kulishlari kerak. Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
9. Muxtor O. Xotin podshoh. Toshkent: Sharq, 2010.
- 10.Muxtor O. To'rt tomon qibla. T., 2000.
- 11.Mamajonov S. Ulkan olim va dramaturg. T., 1980.
- 12.Navoiy zamondoshlari xotirasida. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1985.
- 13.Quronov D, Mamajonov Z, Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. Toshkent: Akademnashr, 2010.
- 14.Qo'shjonov M. Ilm va ijod olamida. T., 1980.
- 15.Rasulov A. Badiiylik bezavol yangilik. T., 2009.
- 16.Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. T., 1979.
- 17.Sanjar Sodiq. Ijodning o'ttiz lahzasi. T., 2005.
- 18.Sultonov I. Adabiyot nazariyasi. Toshkent: O'qituvchi,1980.
- 19.Sultonov I. Navoiyning qalb daftari. 1976.
- 20.Solijonov Y. Nutq va uslub. Toshkent: Cho'lpon, 2002.
- 21.Solijonov Y. 80-90-yillar o'zbek nasrida badiiy nutq poetikasi. T., 2002.
- 22.Solijonov Y. Dialog qurilishi va uning elementlari // O'zbek tili va adabiyoti. 2010.№3. – B.3-7.
- 23.Solijonov Y. Haqiqatning sinchikov ko'zlari. T., 2009.
- 24.Solijonov Y. Navoiyni anglash baxti // Buxoro mavjlari.2011. №3.

25.Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. T., 2009.

26.Yoqubov Islomjon. Omon Muxtor romanlari // Til va adabiyot ta'limi.
2011.№3.